

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI**

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT  
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIM KAFEDRASI**

**Fakultet dekani:** dots. Ochilov O'.S.

**Kafedra mudiri:** dots. Raupov S.S.

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Mavzu: Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga doimiy komissiyalari va  
ular faoliyatini tashkil etish.**

**5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim  
yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun**

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari  
va huquq ta'limi yo'nalishi  
bitiruvchisi: Haydarov Firdavs  
Baxtiyor o'g'li**

**Ilmiy rahbar: o'qituvchi  
Norova M.F.**

## **KIRISH**

**I-BOB. O`zbekiston Respublikasi mahalliy vakillik va hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalari tizimi va faoliyatini tashkil etilishining huquqiy asoslari.**

**1.1. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlari.**

**1.2. O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari komissiyalari ish faoliyatini tashkil etish jarayoni.**

**1.3. Doimiy va muvaqqat komissiyalarni shakllantirishning huquqiy asoslari**

**II-BOB. O`zbekiston Respublikasi mahalliy vakillik va hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalari faoliyatini amalga oshirishning huquqiy mexanizmi.**

**2.1. Xalq deputatlari Kengashlarida sessiyalar, doimiy komissiyalar faoliyatining tashkil etilishi**

**2.2. Doimiy komissiya nazorat faoliyatini amalga oshirish mexanizmi**

**2.3. Doimiy komissiyalarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini rivojlantirish**

**XULOSA .....**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

## KIRISH

”Qonunning birdan bir manbayi va muallifi tom ma’noda xalq bo’lishi kerak”<sup>1</sup>

Shavkat Mirziyoyev

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va asoslanishi.** O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng, milliy, tarixiy an‘analarimiz, qadriyatlarimizga asoslanib, mahalliy davlat hokimiyatini o‘ziga xos modeli yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, "Joylarda vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarini tuzishdagi asosiy maqsad, birinchidan; shu joylarda davlat organlarini tuzishda aholining ishtirokini ta’minlash, ikkinchidan; mahalliy ahamiyatga ega masalalarni bamaslahat, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish, uchinchidan; ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan mahalliy miqyosda nazorat o‘rnatish edi"<sup>2</sup>. Mazkur fikrlar bevosita O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7-moddasida nazarda tutilgan —davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq nomli prinsipga va 1948-yil 10 dekabrda qabul qilingan —Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasi 1-qismida nazarda tutib o‘tilgan —har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega degan normasiga o‘zaro chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Davlat mustaqilligi e’lon qilinganidan so‘ng mahalliy vakillik organlari uchun tamal toshi sifatida nazarda tutiladigan —O‘zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq 1992 yil yanvardan boshlab viloyat, tuman va shaharlarda joylardagi vakillik hamda ijroiya-

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi-T.; O‘zbekiston, 2017.-28-bet

<sup>2</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000. - B.207.

boshqaruv hokimiyatiga rahbarlik qiluvchi hokimlik lavozimi joriy etildi. Hokimliklar mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni umumdavlat nuqtai nazaridan va hududda yashayotgan fuqarolarning manfaatlariga asoslangan holda hal qilishlari belgilab qo'yildi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiyaning XXI bobida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdor shaxslarni lavozimga qo'yilishi, javobgarligiga oid normalar ifodasini topdi.

1991 yildan boshlab hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududlarining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda, mahalliy vakillik organlarida doimiy komissiyalar to'la shakllantirilgan. Lekin ularning o'z vakolatlariga doir masalalarni ko'rib chiqishlari, fuqarolarning ushbu jarayondagi ishtiroki, deputatlar mas'uliyati va javobgarligi masalalarining Kengashlar «Ish tartibi», «Doimiy komissiyalar to'g'risida»gi nizomlarda aniq belgilanmagani, mavjud normalarni esa etarli darajada hayotga tatbiq etilmayotganligi birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ko'p marotaba ta'kidlangan ijro organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurati<sup>3</sup>, qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlashdagi sustkashlik joylardagi muammolarni izchil hal qilishga to'sqinlik qilmoqda. Doimiy komissiyalar faoliyatidagi bu va boshqa muammolar ularga bag'ishlangan tadqiqotlarning ilmiy-nazariy va, ayniqsa, yuksak amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, davlat qurilishi va boshqaruvi borasidagi ishlarni izchil amalga oshirish borasida yangi talablarni qo'yimoqda.

---

<sup>2</sup>Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Xalq so'zi. 2004 yil, 26 may.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov e’tirof qilganidek, —Muayyan ijtimoiy yo‘nalishlarga qaratilgan dasturni amalga oshirishda, eng avvalo, uning qonuniy-huquqiy asosini atroflicha o‘rganish, yana qanday yangi qonun va me‘yoriy hujjatlar qabul qilish zarurligini aniqlash, bu yo‘lda g‘ov bo‘lib turgan to‘siqlarni olib tashlash, kerak bo‘lsa, davlat tomonidan tegishli imtiyoz va qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib berish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar, xususan, ikki palatali parlamentning tashkil etilishi, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash jarayonlari O‘zbekiston Respublikasining —Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, —Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari modelining ilgari surilayotganligi, ushbu Qonunni hozirgi zamon talablariga qanchalik javob bera olishini o‘rganish, shu bilan birga qonunda belgilangan normalarni qo‘llanish darajasini, holatini aniqlash, baholash, salbiy jarayonlarni prognoz qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida uning mahalliy davlat hokimiyati tizimiga islohotlar o‘tkazish zaruratini vujudga keltirdi.

**Tadqiqot predmeti malakaviy ishda ko‘rib chiqiladigan muammolar.** Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari faoliyatini tashkil etishda saylovlar, sessiyalar, doimiy komissiyalarning faoliyat yuritishi, kengash tomonidan nazorat qilinadigan holatlar, deputatlar ish faoliyatiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan masalalar, shuningdek vakillik organlari faoliyatida uchrab turadigan kamchiliklarni bartaraf etish kabi holatlarni mazkur tadqiqot ishida ko‘rib chiqamiz.

**Tadqiqotning maqsadi.** Xalq deputatlari viloyat tuman va shahar Kengashlarining huquqiy maqomi hamda faoliyatini huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq muammolarni yaxlit tarzda o‘rganish, mahalliy kengashlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga zarur izohlar berish, ularni demokratik

---

<sup>3</sup>Karimov I., Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari - eng oliy qadriyat/ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. 2005. 8 dekabr

islohotlarning maqsad va talablariga muvofiqligi darajasini aniqlash va takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdir.

**Tadqiqotning vazifalari :**

- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari va reglamenti.
- Xalq deputatlari Kengashlarida sessiyalar, doimiy komissiyalar faoliyatining tashkil etilishi
- Doimiy va muvaqqat komissiyalarni shakllantirishning huquqiy asoslari
- O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari komissiyalari ish faoliyatini tashkil etish.
- Doimiy komissiya nazorat faoliyatini amalga oshirish mexanizmi
- Doimiy komissiyalarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini rivojlantirish

**Tadqiqot ishining ob'ekti.** Xalq deputatlari viloyat , tuman va shahar Kengashlarining doimiy komissiyalari faoliyati bilan bog`liq siyosiy-huquqiy jarayonlar va munosabatlar tashkil qiladi

**Tadqiqot ishining predmeti.** Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari doimiy komissiyalarining huquqiy maqomi hamda ular faoliyatini amalga oshirish bilan bog`liq masalalardan iborat.

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalar hamda bayon etilgan qoidalarning xalq deputatlari viloyat , tuman va shahar Kengashlari deputatlar faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslab berilganligi hamda ulardan uslubiy qo`llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Joylardagi hayotiy muammolarning nazardan chetda qolayotganligi, strategik islohotlarning dasturlari va qonun hujjatlari ijrosining sustligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini sekinlashtirmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini amalga oshirishning ilmiy

bazasini shakllantirish bilan barobar, mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish va normativ-huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot ishining tuzilishi.** Tadqiqot ishi kirish, ikki bob, oltita paragraf, xulosa va foydanilgan adabiyotlardan iborat bo‘lib, u 66 sahifadan iborat.

## **I-BOB. O‘zbekiston Respublikasi mahalliy vakillik va hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar tizimi va faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.**

### **1.1. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlari.**

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshirib kelayotgan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar, faoliyatining tashkiliy shakli va uslublari o‘z funksiya va vakolatlarini har xil tashkiliy shakllardan foydalanib amalga oshiradilar. Davlat hokimiyati organlari va hokimlar oldida turgan vazifalar deputatlar, hokimlik apparati, jamoatchilik vakillari tomonidan bajariladi. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari deyilganda yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar va organlarning xalq deputatlari Kengashlari funksiya va vakolatlarini amalga oshirishda qatnashish vositalari tushuniladi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari o‘zlarining yo‘nalishlariga ko‘ra har tomonlama xarakterga ega. Ular yordamida xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardagi ichki tashkiliy munosabatlar ham, ular

tomonidan davlat, xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilish bo‘yicha o‘z funksiyalarini bajarishga ham erishiladi<sup>5</sup>.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan vakillik organlarining tarixiy rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan bo‘lib, ularning asosiylari mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi mazmunidan kelib chiqadi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining asosiy tashkiliy shakllariga quyidagilar kiradi:

- 1) Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari.
  - 2) Hokimlarning ijroiya apparati.
  - 3) Xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari,
  - 4) Davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining saylov okrugidagi faoliyati.
- Xalq deputatlari kenashlarining asosiy-tashkiliy shakllaridan biri bu sessiya hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida sessiya so‘zi lotincha sessio — so‘zidan olingan bo‘lib, majlis, yig‘ilish degan ma‘noni bildiradi. YA‘ni, ish, mashg‘uloti davriy ravishda amalga oshiriladigan vakolatli organlar-ning, sud yoki jamiyatlarning ish, yig‘ilish o‘tkazadigan davri. O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»<sup>6</sup> Qonunining 17-moddasiga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir.

Sessiya hokim yoki tegishli mahalliy Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan hokim, hokim yo‘kligida esa uning o‘rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chaqiriladi.

Mahalliy Kengashlarning qo‘shma sessiyasi tegishli hokim va tegishli mahalliy Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan hokim, hokim yo‘kligida esa uning o‘rinbosarlaridan biri tomonidan chaqiriladi. Qo‘shma majlisni chaqirish to‘g‘risida hokimlarning qo‘shma qarori qabul qilinishi mumkin.

---

<sup>4</sup>Azizxo‘jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug‘at).-T.: Akademiya, 2001. - 160 b. .

<sup>5</sup>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991 y № 9 320 modda.



Mahalliy Kengashning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Kengashlari, qo'mitalari bilan qo'shma majlislari hokim tomonidan chaqiriladi.

Sessiya, birlashgan sessiya va qo'shma majlislarni (bundan buyon matnda sessiya deb yuritiladi) chaqirish to'g'risidagi qarorda sessiyani chaqirish vaqti va joyi, sessiya ko'rib chiqadigan masalalar va masalani sessiyaga olib chiqish uchun mas'ullar ko'rsatiladi. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan va uning kun tartibiga kiritilgan masalalar to'g'risida deputatlar sessiya ochilishidan kamida etti kun oldin xabardor qilinadi. Sessiya kun tartibi loyihasi hokimning sessiyani chaqirish to'g'risidagi qarorida belgilanadi. Bu hususida quyida batafsil to'htalib o'tamiz<sup>7</sup>.

Keyingi tashkiliy-huquqiy shakli davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining saylov okrugidagi faoliyati. Mahalliy Kengash deputatining o'z saylov okrugidagi ishi uning asosiy majburiyati hisoblanadi. Mahalliy Kengash deputatining saylov okrugidagi ishi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Birinchidan, okrug saylovchilari bilan yig'ilishlar, mehnat jamoalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan, siyosiy partiyalar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish; aholini mahalliy Kengashning ishi to'g'risida muntazam xabardor qilib turish; qonunlarning va hokimiyat vakillik organlari qarorlarining ijrosini tashkil etish hamda nazorat qilishda ishtirok etish; jamoatchilik fikrini, aholining talab va ehtiyojlarini o'rganish, bular haqida tegishli davlat hokimiyati organlariga xabar berish, mahalliy Kengash qarorlarini tayyorlashda o'z takliflarini kiritish.

Ikkinchidan, saylovchilardan o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqish, ularni o'z vaqtida va to'g'ri hal etish choralari ko'rish, o'z saylov okrugida fuqarolarni muntazam ravishda qabul

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, ularning doimiy kommissiyalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari faoliyatini tashkil etishning ayrim jihatlarini bo'yicha uslubiy tavsiyalar.2012.

<sup>7</sup> Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001. - 160 b.

qilish<sup>8</sup>. Saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish uchun deputat zarur sharoitlar bilan ta'minlanadi. Uning iltimosiga ko'ra hokimliklar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari joy ajratib, deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazadigan, fuqarolarni qabul qiladigan vaqti va joyini fuqarolarga ma'lum qiladilar, qabul va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun deputatning taklifiga binoan o'zlarining mas'ul vakillarini yuboradilar, shuningdek deputatning joylardagi ishiga ko'maklashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlar ko'radilar. Bunda deputatlarning qabul vaqti va joyi haqidagi axborotni saylovchilar e'tiboriga fuqarolar qabul qilinadigan joylarda etkazishdan tashqari ommaviy axborot vositalarida ham e'lon qilish tavsiya etiladi. Bu yo'nalishdagi ishlarni faollashtirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi hamda Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta'minoti komissiyasi tomonidan «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Qonunining Xorazm viloyatida bajarilishi haqidagi qo'shma qarori va ma'lumotnomasi qo'l kelishi mumkin (ushbu qaror va ma'lumotnoma mamlakatimizning barcha viloyat, tuman va shahar hokimliklariga 2006 yilning aprel oyida ishda foydalanish uchun yuborilgan). «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ijro etilishini o'rganish natijalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi bilan xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi 2007 yil 23 fevralda Urganch shahrida o'tkazilgan qo'shma majlisda qabul qilgan qaror ham shu yo'nalishdagi muhim hujjat bo'lib qoldi va u parlament yuqori palatasi bilan hokimiyat vakillik organlarining hamkorligidan dalolat beruvchi yorqin misoldir.

Ijobiy natijalarga erishish, deputatlarning nufuzini va ularning faolligini oshirish maqsadida fuqarolarni qabul qilish uchun deputatlarga ajratilayotgan joylarda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari,

---

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi .1994 y № 9, 320 modda

Prezidentimiz farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlarini, umuman deputat ishi uchun zarur yuridik va boshqa maxsus adabiyotlarni jamlash ham tavsiya etiladi.

Uchinchidan, mahalliy Kengash deputati vaqti-vaqti bilan, ammo yiliga kamida ikki marta o'z ishi to'g'risida saylovchilar oldida hisobot berishi va o'zi saylangan mahalliy Kengash ishi haqida saylovchilarni xabardor etib turishi zarur. Deputatning hisobot berishi shu maqsadda tegishli hokimlik, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan chaqiriladigan saylovchilar yig'ilishlarida yoki mazkur saylov okrugi vakillarining yig'ilishlarida o'tkaziladi. Hisobot berishi va saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishi uchun deputatga zarur sharoitlar yaratib beriladi. Deputatning iltimosiga ko'ra, hokimlik bino ajratishni tashkil etadi, uning saylovchilar bilan uchrashuvlari o'tkaziladigan vaqt va joyni fuqarolarga ma'lum qiladi.

To'rtinchidan, yuqori turuvchi mahalliy Kengash deputati quyi turuvchi mahalliy Kengashlar va ularning organlari majlislarida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishga haqli. Deputatlarning quyi turuvchi mahalliy Kengashlar sessiyalarida keng ishtirok etishi deputatlarning obro'-e'tiborini yanada mustahkamlaydi, quyi turuvchi mahalliy Kengashlar deputatlarining ish shakllarini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Beshinchidan, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda yoki qonuniylik boshqa tarzda buzilganda davlat hokimiyatining vakili sifatida deputat o'sha joyning o'zida bunday qoidabuzarlik to'xtatilishini talab qilishga, zarurat bo'lganda esa, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzish yoki qonun hujjatlarini boshqa tarzda buzish aniqlangan hollarda ularga darhol chek qo'yish choralarini ko'rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etishga haqli.

Deputat saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazayotganda hisobot ma'ruzasida o'zining saylov okrugida amalga oshirgan ishi, mahalliy Kengashga bergan takliflari, ular mahalliy Kengashning qarorlarida, doimiy komissiyalarning tavsiyalarida qanday aks etganligi, o'z saylovchilaridan tushgan xatlar, takliflar va

shikoyatlar, fuqarolarni qabul qilish yuzasidan, doimiy komissiyada, deputatlar guruhida va saylov okrugining o'zida olib borayotgan ishlari to'g'risida saylovchilarni xabardor qiladi<sup>10</sup>.

Deputatning saylovchilar yig'ilishidagi ma'ruzasi tinglovchilar bu ma'ruza haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradigan, kamchiliklarni ochiq ko'rsatadigan, o'z takliflarini o'rtoqlashadigan darajada mazmundor va qiziqarli bo'lishi kerak.

Deputatning ma'ruzasi, qoida tariqasida, ikki asosiy qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismda Kengashning va uning organlarining faoliyati to'g'risida, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishdagi yutuqlar hamda kamchiliklar to'g'risida so'z boradi. Hisobotlar, ma'ruzalar, qarorlar loyihalari va boshqa materiallarni tayyorlash uchun hokimliklar deputatlarni tegishli hokimiyat vakillik organlari qabul qilgan hujjatlar bilan ta'minlaydilar, axborot yo'sinidagi va yordamchi materiallar bilan ta'minlashga ko'maklashadilar, deputatlik faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan mutaxassislarining maslahatlarini uyushtiradilar.

Hisobot ma'ruzasining ikkinchi qismi bevosita deputatning o'z faoliyatiga, ya'ni uning mahalliy Kengash va doimiy komissiyalar ishidagi ishtirokiga, fuqarolarni qabul qilishi, fuqarolardan tushgan xatlar va shikoyatlarni qarab chiqishi, saylovchilarning takliflarini bajarishdagi ishtirokiga bag'ishlanadi. Ma'ruzaning bu qismini tayyorlashda deputat o'z kundalik daftaridan foydalanadi. Deputat hisobot davri mobaynida bu daftarga turli qaydlar qilib, o'z deputatlik faoliyatining turli tomonlarini aks ettirib boradi.

Deputat o'z ma'ruzasining yakunida mahalliy Kengash va uning organlari oldida turgan vazifalar to'g'risida gapiradi, ularning mazmun-mohiyatini tushuntirib beradi va saylovchilarni bu vazifalarni bajarishda faol ishtirok etishga chaqiradi. Deputatning ma'ruzasi to'liq, o'z-o'zini tanqid ruhida yozilgan bo'lsa, unda mahalliy Kengash va hokimlikning faoliyati tahlil qilinib kamchiliklar ham aytib o'tilgan bo'lsa, foydali bo'ladi.

---

<sup>10</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, ularning doimiy komissiyalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari faoliyatini tashkil etishning ayrim jig'atlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar.2012.

Amalda ko'pincha deputat qaysi davr uchun hisobot berishi kerak, degan savol tug'iladi. Deputatning birinchi hisoboti u saylangan paytdan belgilangan tartibda hisobot berishi kerak bo'lgan kungacha o'tgan davrni o'z ichiga oladi. Keyingi hisobotlar mahalliy Kengashning va deputatning oldingi hisobotdan navbatdagi hisobotgacha o'tgan davrni qamrab oladigan tarzda tuzilishi kerak. Ammo bu, zarur bo'lgan hollarda, ilgariroq qilingan ishlar haqida ham so'zlash imkonini istisno qilmaydi. Keyingi vaqtlarda deputatlarning butun chaqiriq mobaynida qilingan ishlar yuzasidan hisobot berishi keng yoyila boshladi<sup>11</sup>.

Hisobot yig'ilishi o'tkazilganidan keyin deputat kechi bilan uch kun ichida hisobot o'tkazilgan joy va vaqt, yig'ilishda hozir bo'lgan va so'zga chiqqan saylovchilar soni, o'zining faoliyatiga qanday baho berilganligi va saylovchilardan tushgan takliflar to'g'risida tegishli mahalliy Kengash rahbarini yozma ravishda xabardor qilishi maqsadga muvofiqdir.

Saylovchilarni qabul qilish, ularning xat va takliflarini qarab chiqish deputatning saylov okrugidagi faoliyatining eng muhim shakllaridan biridir. Fuqarolar deputatlarga xat va shikoyatlar bilan murojaat qilar ekanlar, ularni hokimlikdagi o'z vakillari deb biladilar, o'zlariga yordam berishlariga, o'zlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishlariga ishonadilar. Kelib tushgan har bir xat yoki shikoyatni o'z vaqtida va atroflicha o'rganib chiqish hamda ularga o'z vaqtida javob berish deputatning birinchi navbatdagi vazifasidir. Agar taklif, iltimos yoki shikoyatlarni qarab chiqish uzoqroq vaqt talab qiladigan bo'lsa, xat muallifi bu haqda o'z vaqtida xabardor qilinishi lozim. Odatda saylovchilar deputatga murojaat qilib, uning oldiga keng doiradagi va ko'p qirrali masalalarni qo'yadilar. SHu sababli xatlarga to'g'ri javob va izohlar berish uchun deputat er to'g'risidagi, mehnatga, pensiyaga oid, uy-joy to'g'risidagi va boshqa qonun hujjatlarini qunt bilan o'rganib chiqishi kerak.

---

<sup>11</sup> Jo'rayev B. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash faoliyati: huquqiy tashkiliy masalalar. Yuridik fanlar nomzodi ... dissertatsiya avtoreferati. T., 1999

Kunduz kuni ishlab chiqarishda band bo‘lgan fuqarolarga qulaylik bo‘lishi uchun deputat ularni, odatda, kechqurunlari yoki dam olish kunlari qabul qiladi. Qabulni qaysi vaqtda va qaerda tashkil qilish masalasini deputat hokimlik bilan birgalikda hal etadi. Qabul vaqti va joyi to‘g‘risida e‘lon osib qo‘yiladi yoki bu ma‘lumotlar boshqacha usullar bilan saylovchilar e‘tiboriga etkaziladi. Deputat o‘z kundalik daftarida qabul qilishini so‘rab o‘ziga murojaat qilgan fuqarolarni hisobga olib boradi, o‘zi qanday choralar ko‘rganligini, fuqarolarning iltimoslari qanoatlantirilganligini yoki qanoatlantirilmaganligi sabablarini yozib boradi. Deputat asossiz iltimoslarni quvvatlay olmaydi. Bunday hollarda deputat murojaat etgan kishiga uning nohaqligi boisini, iltimosini nima sababdan qondirish mumkin emasligini to‘g‘ri tushuntira bilishi kerak.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining reglamenti haqida aytib o‘tadigan bo‘lsak dastlab reglament so‘zining ma‘nosiga to‘xtalib o‘tishimiz lozim bo‘lib, O‘zbek tilining izohli lug‘atida reglament fransuzcha – reglament, lotincha. regula — tartib, qoida degan ma‘noni bildirib,

1. Yig‘ilish, majlis, kengashni olib borish, o‘tkazish tartibi.
2. Biror davlat organi, muassasa, tashkilot va shu kabilarining faoliyat tartibini belgilovchi nizom va qoidalar majmui.
3. Xalqaro kongresslar va konferensiyalar tomonidan qabul qilingan ba‘zi hujjatlarning nomi.

Demak reglament biz tahlil qilayotgan mavzu doirasida qabul qilinadigan bo‘lsak, reglamenti xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining faoliyat tartibini belgilovchi nizom va qoidalar majmui tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2010 yil 30 dekabrda 154–II-sonli Qaroriga 1-ilova sifatida Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti qabul qilingan. Mazkur normativ hujjat 10 bob va 79-moddadan iborat bo‘lib unda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari haqidagi umumiy qoidalar, sessiyalarni chaqirish va o‘tkazish tartibi, sessiyada masalalarni ko‘rib chiqish tartibi, sessiyada qarorlar qabul qilish va

ularni e'lon qilish tartibi, viloyat (Toshkent shahar) hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbarini tasdiqlash tartibi, tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbarini tasdiqlash tartibi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolarini saylash tartibi, doimiy va muvaqqat komissiyalarning faoliyat yuritish tartibi, deputatlik faoliyatini amalga oshirish shakllari va xalq deputatlari Kengashi faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmat ko'rsatish kabi masalalarning qanday tartibda amalga oshirilishi nazarda tutib o'tilgan. Mana shunday normativ hujjatning mavjud bo'lishi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining faoliyat yuritishida yuzaga keladigan texnik, ma'muriy va xo'jalik muommolarining xalq etishga xizmat qiladi.

## **1.2. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari komissiyalari ish faoliyatini tashkil etish jarayoni.**

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikni dastlabki yillarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli ijro hokimiyati shakllantirilgan<sup>11</sup> edi. Bugun esa, markaziy hokimiyat idoralari vakolatlarini mahalliy hokimiyat hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish jarayonlari samarali uslublar va shakllarga ega bo'lib borishi, siyosiy sohani erkinlashtirishning zarur.<sup>12</sup> Bu - jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko'proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning ma'suliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi. Ushbu muhitni joylarda ta'minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi<sup>13</sup>

Darhaqiqat, vakillik organlari barcha rivojlangan davlatlar mahalliy hokimiyat organlari tizimida yetakchi o'rin tutadi. Chunki to'g'ridan-to'g'ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanganligi tufayli vakillik organi aholi

---

<sup>12</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. - T.: «O'zbekiston», 1997. 11-12 b.

<sup>13</sup> Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // Xalq so'zi. 2002 yil, 30 avgust;

manfaatlarini ko`zlab ish yuritish va uning nomidan qaror qabul qilish huquqiga ega bo`ladi. Zero, ular o`z-o`zini boshqarish demokratiya maktabining rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan.

O`zbekiston qonunchiligida o`z aksini topgan viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi xalq deputatlari kengashlarining davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab, o`z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi muhim demokratik me'yorlardan biridir.

Doimiy komissiyalarning huquq va vazifalari, ularning tashkil etilishi va faoliyatlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qarorlari, davlat dasturlari, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to`g`risida»gi. «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, farmoyishlari, qarorlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, boshqa qonun hujjatlari, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi «Ish tartibi» hamda mazkur «Nizom» bilan belgilab beriladi va amal qilinadi.

Doimiy komissiyalar – Kengashning ishchi organlaridir. Ular Kengash tomonidan qo`yilgan vazifalarni amalga oshiradilar. Xalq deputatlari Kengashlari o`z vakolatlarini deputatlarning umumiy yig`ilishi, ya'ni sessiyalar orqali amalga oshirish huquqiga egadir. Chunki Kengash mahalliy hokimiyat organi sifatida aholi manfaatlarini ifodalovchi deputatlardan iboratdir.

Doimiy komissiyalar Kengashning ishchi organi sifatida uning vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan (tashkiliy va u bilan bog`liq nazorat faoliyati) va Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish (qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish ustidan nazorat va uning ijrosini tashkil etishga ko`maklashish) bilan shug`ullanadilar.

Doimiy komissiyalar faoliyatini yo`naltirish, muvofiqlashtirish, asosan, sessiyalarni o`tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Kengashlar, doimiy



komissiyalarning sohalariga qarab, ularga ma'lum masalani tayyorlashni topshirish orqali o'z vazifalarini bajargan holda, tegishli sohaning tahlili va samarali boshqaruviga erishadilar. Doimiy komissiyalar mazkur masalalar va ular yuzasidan qaror loyihalarini tayyorlaydilar va ushbu jarayonda aholi manfaatlarini aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Doimiy komissiyalarning Kengash oldidagi hisobdorligi ularning faoliyatiga rahbarlik qilishning muhim huquqiy vositasini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Doimiy komissiya hisoboti asosida Kengash tomonidan, odatga ko'ra, komissiya faoliyati atroflicha tahlil etilgan, erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar ko'rsatilgan qaror qabul qilinib, unda keyingi faoliyatning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqiladi hamda tashkiliy-amaliy ishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Bunday qarorlar nafaqat hisoboti tinglangan doimiy komissiya, balki boshqalari uchun ham rahbariy hujjat hisoblanib, ularning ishini yaxshilash, yo'naltirish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan, xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashi doimiy komissiyalarining tizimi quyidagicha tuzilgan:<sup>1 14</sup>

1. Mandat komissiyasi;
2. Qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar tengligini ta'minlash masalalari doimiy komissiyasi;
3. Iqtisodiy islohotni, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirish masalalari doimiy komissiyasi;
4. Agrosanoat kompleksi va suv xo'jaligi masalalari doimiy komissiyasi;
5. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot doimiy komissiyasi;
6. Sanoat, transport, qurilish, aloqa doimiy komissiyasi;

---

<sup>14</sup> Andijon viloyati xalq deputatlari Kengashining 1-chaqiriq, 1-sesiyasida tasdiqlangan "Doimiy komissiyalari to'g'risida"gi Nizom, 1995. 4 m. (Joriy materiallari).

7. Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar, yig`imlarni belgilash, budjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalari doimiy komissiyasi;
8. Kommunal xo`jalik va atrof muhitni muhofaza qilish doimiy komissiyasi.

O`zbekiston Respublikasidagi xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasida komissiyalari o`z faoliyatining asosiy yo`nalishlari bo`yicha tuzilishi belgilangan.

Doimiy komissiyalar o`z faoliyatlarini “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunning 18 va 24-moddalariga muvofiq tashkil etadilar.

O`zbekiston Respublikasida mahalliy xalq deputatlari doimiy komissiyalarining faoliyati Kengash tomonidan tasdiqlanadigan Nizom asosida yuritiladi. Doimiy komissiyalar, deputatlarni birlashtiruvchi organ hamda xalq deputatlari Kengashining yordamchi organlari bo`lib, hisoblanadi.<sup>15</sup>

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining yuqorida ko`rsatib o`tilgan huquq va vakolatlarining ma'lum bir qismini amalga oshirilishi tegishli tarmoqni rivojlantirishning uzoq muddatga mo`ljallangan rejalarida komissiya tomonidan o`rganilib sessiya majlislarida ko`rib boriladi. Shuningdek, mahalliy ijroiya hokimiyat organlari huzuridagi komissiyalar faoliyatining tashkil etilishi ham Kengash doimiy komissiyalariga o`xshasada, lekin tarkib topishi, faoliyat yuritishi butunlay boshqa masaladir, ammo ular ishining ayrim tomonlari o`zlariga tegishli masalalarni va muammolarning yechimini o`z rejalarida asosida amalga oshiradilar. Masalan, Kengashning, “Qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash masalalari doimiy komissiyasi”. Hokimlik huzuridagi; “Jazoni o`tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko`rsatish bo`yicha komissiyasi”, va «Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyasi», mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirishning tegishli hududlarda ijtimoiy munosabatlarni ayrim masalalarini tartibga solinishida

---

<sup>15</sup>Xusanov O.T. O`zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. O`quv qo`llanma. – T.: Universitet, 1994. – B.37.

bu ikki hokimiyat organlarining komissiyalari o`z faoliyatlarini bir maqsad yo`lida tashkil etadilar. Mahalliy hokimliklar huzuridagi jazoni o`tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishida yordam ko`rsatish bo`yicha komissiyasi faoliyatiga rahbarlik qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi<sup>16</sup>.

Mahalliy ijroiya hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlarini hayotga tatbiq etishga ko`maklashish, hokim qabul qilgan hujjatlarning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish hamda viloyat, tuman va shahar hokimlari, bo`lim va boshqarmalari, korxonalar tashkilot va xo`jaliklar faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida hokim tomonidan uning huzurida komissiyalar tuziladi.<sup>3</sup> O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan namunaviy Nizom asosida, viloyat, tuman va shahar hokimlari ularning vazifalari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari qoshida tuziladigan doimiy komissiyalar bilan hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalar farqi quyidagilardan iborat:

1. ularni tashkil etishning maqsadi, vazifalari va vakolatlari;
2. komissiyalar tarkibi, tuzilish tartibi, vakolat muddati va faoliyatining ko`lami;
3. komissiyalar ishining tashkil etilishi va ular faoliyatida ishtirok etuvchi davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar vakillarining doimiyligi yoki zaruriyligi;
4. komissiyalar ishiga rahbarlik masalalari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Lekin faoliyatining maqsadi bitta, ya'ni tegishli hududda qonuniylikning rivojlanish talablarini amalga oshirishni ta'minlashdir.

---

<sup>16</sup>Toshkent viloyati hokimining 1998 yil 27 martdagi 72 sonli qaroriga muvofiq, Toshkent viloyati hokimi ijroiya mahkamasining "Ish tartibi" tasdiqlangan. 6-bob, 1-moddasi. (Joriy materiallari).

Masalan, joylarda voyaga yetmagan fuqarolar o`rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlarning susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo`lgan nazoratning bo`shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal etilmayotganligi oqibatida ko`plab yoshlar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turibdi.<sup>17</sup> Yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish tarbiyalash va ular o`rtasidagi huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida, hokimliklar huzurida faoliyat yuritayotgan voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar huquqiy holati qaytadan ko`rib chiqilib takomillashtirildi.

O`zbekiston hududining vodiy adirliklarida joylashgan Andijon, Farg`ona va Namangan viloyatlari hokimliklari huzurida faoliyat ko`rsatuvchi komissiyalar tizimi quyidagicha belgilangan:

1. "Mustaqillik", "Navro`z" bayramlari va ommaviy tadbirlarni o`tkazish komissiyasi;
2. Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo`yicha viloyat mintaqaviy komissiyasi;
3. Favqulodda holatlar bo`yicha komissiyasi;
4. Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga to`lovlar intizomini mustahkamlash bo`yicha komissiyasi;
5. Harbiy chaqiruv komissiyasi;
6. Yoqilg`i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish komissiyasi;
7. Metallolom yig`ish va topshirish bo`yicha komissiyasi;
8. Qishloq infrastrukturasi rivojlantirish dasturining bajarilishni nazorat qilish bo`yicha komissiyasi;
9. Alohida muhim ahamiyatga ega bo`lgan obyektlarning qo`riqlanishini nazorat qilish bo`yicha komissiyasi;

---

<sup>17</sup> O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 360-sonli Qarori. 21 sentabr, 2000 yil "Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari ho`zurdagi voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalari to`g`risidagi Nizom. Keyingi o`rinlarda, "

10. Qishga tayyorgarlik ko`rish komissiyasi;
11. Epedemiyaga qarshi kurash favqulotda komissiyasi;
12. Toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomini o`zgartirish masalalari komissiyasi;
13. Yo`l harakati xavfsizligini ta'minlash komissiyasi;
14. "Davlat tili" to`g`risidagi qonunni bajarish va yangi o`zbek alifbosini joriy qilish masalalari komissiyasi;
15. Viloyat bozorlarining faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarishni tartibga solish komissiyasi;
16. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 dekabr 604 sonli "Respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarorining bajarilishini nazorat qilish komissiyasi;
17. Viloyat pul-kredit siyosati komissiyasi;
18. Korxonalar bankrotligi va sanatsiya masalalari bo`yicha komissiyasi;
19. Aksiz markalari tizimini joriy etish bo`yicha idoralararo komissiyasi;
20. Qishloq xo`jalik korxonalarini sanatsiya qilish masalalari bo`yicha komissiyasi;
21. Viloyat huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan musodara qilingan tovar xom-ashyo va boshqa moddiy boyliklarni baholash va sotilishini tashkil etish komissiyasi;
22. Kichik va o`rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag`barlantirish bo`yicha viloyat muvofiqlashtirish va tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan investitsiya loyihalari tanlab olish ishchi komissiyasi;
23. Soliq va to`lov intizomini mustahkamlash bo`yicha komissiyasi;
24. Haj va Umra ziyoratlarini tashkil etish komissiyasi;
25. Qurish kompleksining norentabel va kam quvvatli tashkilotlarini qayta tiklash va tugatish bo`yicha komissiyasi;
26. Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyasi.
27. Jazoni o`tash joylaridan ozod qilinadigan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko`rsatish bo`yicha komissiyasi;

28. Axborot faoliyati va ma'lumotlar o'zatilishini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha komissiyasi;
29. Alkogolli mahsulotlar ishlab-chiqarish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga maxsus ruxsatnomalar (litsenziya) berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasi;
30. Aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish bo'yicha komissiyasi. Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash va viloyatda sel va suv toshqinlari xavfining oldini olish ishlarini tashkil qilish bo'yicha komissiya shtatlarining huquqiy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunlarda ular joylarda o'z faoliyatlarini yuqori darajada davom ettirmoqdalar.

Ushbu komissiyalarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Karorlari asosida tasdiqlangan "Namunaviy Nizom" va «Ish tartib»lari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunida bevosita maxsus komissiyalar tuzilishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan bo'lsa ham, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy Nizom asosida, viloyat, tuman va shahar hokimlarining tegishli qarorlari bilan tashkil etiladi. Bu qarorlarda komissiyalarning vazifalari, vakolatlari va shu komissiyalar ishini tashkil etish masalalari belgilab berilgan. Shundan xulosa qilib, viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzuridagi komissiyalar tizimi va tuzilishi quyidagicha bo'ladi: 1) viloyat va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar; 2) tuman va shahar hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar. Shuningdek, istisno tariqasida komissiyalar tuman markazidan ancha olisda joylashgan qo'rg'onlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huzurida ham tuzilishi mumkin, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huzurida komissiyalar tuzishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala tegishli viloyatlar Toshkent

shahar hokimligi tomonidan hal etiladi.<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi hokimliklari huzuridagi komissiyalari tizimi viloyat, tuman, shahar va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar, tuman tarkibiga kiruvchi shaharlarda ham tuziladi.

Ba'zi bir komissiyalarning tashkil etilishi mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa ham, masalan; voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Namunaviy Nizom» asosida tuzilgan, ba'zi bir komissiyalarni tuzish mahalliy ijroiya mahkamaning tashabbusi va Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tuzilmoqda. Hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalarga rahbarlik masalalari hokim, hokim o'rinbosarlari va xodimlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillikdan keyingi davrda mahalliy ijroiya hokimiyat organlariga berilgan shtatlar miqdorida, hokim apparatidagi shtat birliklarini, ularning bo'lim va boshqarmalarini tegishli hudud mahalliy sharoitlarini hisobga olgan holda, Vazirlar Mahkamasining roziligi bilan o'zlari qayta taqsimlash huquqlari berilgan.<sup>19</sup> Shuningdek, komissiyalarning ayrimlarini tuzish yoki tuzmaslik huquqlari ham bunga kiradi. Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida hokimliklar huzuridagi tuziladigan komissiyalar tizimi bir xil bo'lishi mumkin emas. Chunki respublikamiz ma'muriy-hududiy tuzilishidagi birliklarda, ya'ni viloyat, tuman va shaharlarning jo'g'rofiy va hududiy joylashishida hamda tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga qarab komissiyalar tizimi turli xil bo'lishi mumkin. Lekin komissiyalar ish rejalarini respublika bo'yicha bir xil muddatlarda tuzilishi belgilangan.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzurida tuzilgan komissiyalar ixtiyoriga aniq belgilangan tarmoqlararo va funksional xarakterga ega bo'lgan, qat'iy chegaralangan masalalar doirasi berilgan. Shuningdek, ushbu komissiyalar hokimlik bilan uzviy tashkiliy aloqaga ega bo'ladi, odatda komissiyalar raislari va

---

<sup>19</sup> Maxsus va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi Nizomning kirish qismidan. (Joriy materiallari). 2000 yil.

20 Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining "Yo'riqnoma"laridan. (Joriy materiallari). 2003 yil.

a'zolari hokimlikning rahbar xodimlaridan tayinlanadi. Bundan tashqari, komissiyalar tarkibiga nomzodlar tegishli davlat organlari rahbarlari va jamoat birlashmalari tomonidan tajribali tarbiyachilar, pedagoglar, huquqshunoslar, jamoatchilikning boshqa vakillaridan ko`rsatiladi hamda ularning taqdimnomasi bo'yicha viloyat, tuman va shahar hokimliklari majlislarida ikki yil muddatga tasdiqlanadi.<sup>12</sup> Masalan, maxsus komissiyalar tarkibiga ichki ishlar organlari, prokuratura, sud, shuningdek advokatura xodimlari ham kirishi mumkin.<sup>13</sup> Maxsus komissiyalar butun faoliyatlari davomida tegishli hokimliklar oldida mas'uldirlar va ularga hisob berib turadilar.

### **1.3. Doimiy va muvaqqat komissiyalarni shakllantirishning huquqiy asoslari**

Mahalliy Kengash sessiyaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash uchun o'z vakolatlari muddatida jamoatchilik asosida faoliyatni amalga oshiruvchi doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzishi hamda ular tarkibiga o'zgartishlar kiritishi mumkin.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar raisligiga hamda a'ziligiga nomzodlar sessiyaga hokim – mahalliy Kengashning rahbari tomonidan taqdim etiladi.

Doimiy komissiya raisligiga nomzod bo'yicha ovoz berish alohida o'tkaziladi.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar a'zolari tegishli mahalliy Kengash deputatlari orasidan saylanadi.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar a'ziligiga nomzodlarni saylash nomzodlarning har birini alohida yoki komissiyaning butun tarkibini yalpi muhokama qilish yo'li bilan amalga oshiriladi, ovoz berishda qaror har bir nomzod bo'yicha alohida yoki komissiya butun tarkibi bo'yicha Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Doimiy komissiyalar soni va tarkibi sessiyada belgilanadi.

---

21 Mahalliy ijroiya hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hokimlar tomonidan tasdiqlangan "Ish tartibi" dan. (Joriy materiallari). 2003 yil.

22 "Maxsus komissiyalar to'g'risida" gi Nizom, 3-bandi.



## **Doimiy komissiyalar turlarini belgilash:**

### **Mahalliy Kengash tarkibida, qoida tariqasida, quyidagi doimiy komissiyalar tuzilishi mumkin:**

- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha;
- qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha;
- ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalari bo'yicha;
- yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash masalalari bo'yicha;
- sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha;
- agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha;
- reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha.

Zarur hollarda mahalliy Kengash tomonidan yangi doimiy komissiyalar tuzilishi va ilgari tashkil qilingan doimiy komissiyalar tugatilishi, doimiy komissiyalar tarkibiga o'zgartishlar kiritilishi mumkin.

Partiya guruhlar raislar nomzodlari bo'yicha takliflar kiritayotganda yangi doimiy komissiyalar tuzish zarurligiga ham e'tibor qaratadilar. Demokratik islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarining ko'payishi Kengashdan doimiy komissiyalarni ixtisoslashtirish va umumiy miqdorini belgilashda chuqur asoslangan yondashuvni talab qiladi. Doimiy komissiyalar birgalikda mahalliy Kengash faoliyati va boshqaruv sohasining barcha yo'nalishlarini qamrab oladilar. Biroq har bir komissiya mahalliy boshqaruvning faqat belgilangan sohasida harakat qiladi va o'z faoliyati bilan yo'nalish bo'yicha ob'ektlarni qamrab oladi.

**Doimiy komissiya tarkibi.** Doimiy komissiyalar faoliyati mahalliy Kengash qarori bilan tasdiqlanadigan mahalliy Kengashning doimiy komissiyalari to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Doimiy komissiyalar rais va a'zolar tarkibida mahalliy Kengashning sessiyasida deputatlardan saylanadi. Doimiy komissiyalar o'z majlislarida rais o'rinbosarlari va kotiblarni saylaydi.

Mahalliy Kengashning deputati faqat bitta doimiy komissiya a'zosi etib saylanishi mumkin. Doimiy komissiyalar tarkibiga faqat hokim – mahalliy Kengash rahbari saylanishi mumkin emas.

Doimiy komissiya tarkibiga kirmagan Kengash deputati uning ishida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

Doimiy komissiyalar mahalliy Kengash oldida mas'ul va unga hisobdordir.

Doimiy komissiya tarkibida deputatlari miqdori ko'proq bo'lgan partiya guruhi o'z vakilini doimiy komissiya raisining o'rinbosari yoki kotibi etib saylaydi. Partiya guruhlariga, kotib vazifasining hajmini e'tiborga olib, uning partiyaga mansubligidan qat'i nazar bo'sh vaqti ko'p bo'lgan deputatni kotiblikka saylashni taklif etadi.

**Partiya guruhlarining doimiy komissiyalarda ishtiroki.** Doimiy komissiyalar mahalliy Kengash faoliyatining belgilangan sohalari bo'yicha ixtisoslashadi va o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradilar, bu bilan mahalliy hokimiyat vakillik organlari vazifalari uzluksiz bajarilishiga va ularga vakolatlarini samarali bajarishlariga yordam beradilar. Mahalliy Kengashning barcha ishi doimiy komissiyalarda bajariladi.

Saylovoldi va partiya dasturlari, vazifalarni amalga oshirish uchun partiya guruhlari o'z a'zolarining doimiy komissiya tarkibi a'zolari va raislari sifatida samarali tizim sifatida shakllanishlari va mutanosib ravishda saylanishlaridan manfaatdorlar.

O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 14<sup>1</sup>-moddasiga asosan, partiya guruhlari tegishli vakillik organi qo'mitalari yoki komissiyalari raisligiga, rais o'rinbosarligiga va a'ziligiga nomzodlar yuzasidan takliflar kiritish huquqiga egalar.

Partiya guruhlarining doimiy komissiyalar tuzishga ta'siri yuqorida ko'zda tutilgan huquqi bilangina cheklanib qolmaydi, vaholanki u doimiy komissiyalar

miqdori va shakli, ularning tarkibi saylanishini muhokama qilish va tasdiqlashda faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, sessiyada doimiy komissiya raisi va uning a'zolari saylanganidan keyin partiya guruhi a'zolari doimiy komissiya raisining o'rinbosari va kotibini saylashda ishtirok etadilar.

Mahalliy Kengashlarning Namunali reglamentiga muvofiq doimiy va muvaqqat komissiyalarning raislari va a'zolariga nomzodlar sessiyaga hokim – mahalliy Kengash rahbari tomonidan taqdim etiladi. O'z navbatida partiya guruhlar doimiy komissiyalar rahbarlariga nomzodlar bo'yicha, partiya guruhi majlisida muhokama qilinib, qabul qilinadigan taklifni hokimga kiritadilar. Hokimiyat apparatining tashkiliy-nazorat guruhi tomonidan partiya guruhlar takliflarini muvofiqlashtirish tashkil etiladi, mahalliy Kengashning doimiy komissiyalar bo'yicha qarorlari loyihalari tayyorlanadi va hokimga taqdim etiladi.

Partiya guruhlar uchun partiya dasturlari vazifalari va ularning elektorat manfaatlaridan kelib chiqib, o'z a'zolarini doimiy komissiyalarga taqsimlash muhimligini hisobga olgan holda, ular tomonidan doimiy komissiyalarga a'zolikka nomzodlar bo'yicha ham takliflar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Partiya guruhi a'zolari tomonidan doimiy komissiyalar raislari lavozimlarini egallash va ularni doimiy komissiyalarga maqsadli taqsimlash partiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun ham, mahalliy Kengashlar faoliyati uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Partiya guruhi a'zolarini doimiy komissiyalarga taqsimlashda ma'lumoti, mutaxassisligi, ishlash joyi, qo'mita, komissiyalar tarkibiga nomzodlarning turar joyi, ularda doimiy komissiyalar sohasida faoliyat yuritishga malakalari yetarliligi, shuningdek, u yoki bu doimiy komissiyada ishlashga shaxsan xohishlari borligi kabi omillarni hisobga olish muhim masala hisoblanadi. Sanab o'tilgan omillardan, asosan, doimiy komissiyalar faoliyati sohasidagi ish tajribasi va mutaxassisligiga e'tibor qaratiladi. Haqiqatda bu muhim omil, ammo partiya guruhi tarkibida munosib nomzod bo'lmasa, u holda u tegishli doimiy komissiyada o'z vakili bo'lishi imkoniyatidan mahrum bo'lishi kerak emas. Modomiki, ma'lumotlar bilan ta'minlash, shu bilan birga deputat faoliyatiga maslahat bilan yordam berish

hokimiyat apparati tomonidan amalga oshirilib, unga elektorat manfaatlarini to'liqligicha ifodalash va partiya dasturlarini bajarish qoladi.

Doimiy komissiyalar o'z faoliyatini mahalliy Kengash qarori bilan tasdiqlanadigan ish rejalari asosida amalga oshiradi.

Doimiy komissiyaning sessiyalar oralig'ida o'tkaziladigan majlislarida ish rejasiga tegishli o'zgartishlar kiritilishi mumkin, keyinchalik ular sessiya tasdig'iga kiritiladi.

Doimiy komissiyalar o'z faoliyatini majlis shaklida amalga oshiradi.

Doimiy komissiyalarning majlislari, qoida tariqasida, oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

Doimiy komissiyalarning qo'shma majlislari ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq o'tkaziladi.

### **Muvaqqat komissiyani shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish.**

Mahalliy Kengash aniq vazifalarni bajarish uchun Kengash deputatlari orasidan muvaqqat komissiya tuzishi mumkin.

Muvaqqat komissiya tuzish to'g'risidagi qaror sessiyada qabul qilinadi.

Muvaqqat komissiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarganidan so'ng o'z faoliyatini tugatadi.

Muvaqqat komissiyaning vazifalari mahalliy Kengash qarori bilan belgilanadi.

Doimiy va muvaqqat komissiyalarning tegishli hududdagi davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarga yuboriladigan qarorlari tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi va ular tomonidan ko'rib chiqilib, ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yoki ko'rilgan chora-tadbirlar haqida bir oylik muddatda xabar qilinishi shart.

Mahalliy Kengashning ishi har yili mahalliy Kengashning sessiyasida tasdiqlanadigan mahalliy Kengashning ish rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Mahalliy Kengashning keyingi yil uchun ish rejasi oldindan, ya'ni joriy yil dekabr oyining so'nggi o'n kunligidan kechiktirmasdan tasdiqlanishi lozim. Yangidan tashkil etilgan mahalliy Kengashning ish rejasi tasdiqlanadigan hollar bundan

mustasno. Bu holda mahalliy Kengashning yillik ish rejasini joriy yilning birinchi choragi tugamasdan tuzilishi kerak bo'лади.

Mahalliy Kengashning ishini rejalashtirish deputatlarining ishini samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mahalliy Kengash deputatlarining hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid eng muhim masalalarni hal etish borasidagi ishining samarasi ham mahalliy Kengashning ishi qanchalik puxta va sifatli rejalashtirilganligiga bog'liqdir. Mahalliy Kengashning ish rejasiga kiritilayotgan tadbirlar nafaqat dolzarb, balki bajara olish mumkin bo'lishi ham juda muhimdir. SHuning uchun mahalliy Kengashning doimiy komissiyalari mahalliy Kengashning ish rejasiga o'z takliflarini tayyorlashda faqat tadbir maqsadini tasavvur etibgina qolmasdan, balki bu tadbirlarni amalga oshirish qanday natijalarga erishishga olib kelishini ham aniq tasavvur qilishlari kerak.

Mahalliy Kengashning ish rejasini mazmunan aniq bo'lishi, unda tadbirlarni bajarish muddatlari va mas'ul ijrochilar ko'rsatilishi zarur. Mahalliy Kengashning ish rejasini tuzishda uning bajarilishini ta'minlaydigan (nazorat qiladigan) mahalliy Kengash doimiy komissiyalarining takliflarini, umumdavlat dasturlari nuqtai nazaridan joylardagi davlat hokimiyati organlari oldida turgan umumiy vazifalarni hamda hokimlik apparati tarkibiy bo'linmalarining ish rejalarini hisobga olish kerak. SHuningdek, mahalliy Kengashning ish rejasini tuzishda mazkur viloyat mahalliy Kengash deputatlari orasidan saylangan senatorlarning takliflarini ham hisobga olish zarur. Misol uchun, mamlakatning ba'zi hududlarida senatorlarni yoki xalq deputatlari viloyat Kengashining deputatlarini tuman va shaharlarga birlashtirib qo'yish amaliyoti mavjud. SHuning uchun ularning tuman va shaharlarda olib borgan faoliyatlarining yakunlarini qamrab olgan takliflari xalq deputatlari viloyat Kengashining ish rejasini ham, ular birlashtirilgan tuman va shaharlar hududida joylashgan mahalliy Kengashlarning ish rejasini ham yanada maqsadga yo'naltirib tuzishga imkon beradi.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, mahalliy Kengashning ish rejasiga yil davomida qo'shimchalar va o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Mahalliy Kengashning ish rejasiga o'zgarishlar

kiritishda hududni rivojlantirish uchun eng dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat yo'nalishlari va masalalar hisobga olinishi lozim.

**Mahalliy Kengash doimiy komissiyasining ishini tashkil etish.** Doimiy komissiyalarning ishi, mahalliy Kengashning ishi kabi, reja asosida yo'lga qo'yilishi lozim. Bu maqsadda doimiy komissiyalari har yili mahalliy Kengashning sessiyasida tasdiqlanadigan ish rejasini ishlab chiqadilar. Doimiy komissiyaning kelgusi yil uchun ish rejasi mahalliy Kengashning ish rejasi tasdiqlanganidan so'ng, navbatdagi sessiyada tasdiqlanishi kerak.

Doimiy komissiyaning ish rejasini tuzishda mahalliy Kengashning ish rejasida belgilangan tadbirlar va muddatlar hisobga olinishi, ya'ni doimiy komissiyaning ish rejasi mahalliy Kengashning ish rejasidagi tadbirlarni mantiqan rivojlantirishi va ularning bajarilishini ta'minlashi kerak. Doimiy komissiya o'z rejasini ishlab chiqayotganda faoliyat sohasi bo'yicha yo'nalishini hisobga olishi kerak. Doimiy komissiyaning ish rejasiga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish masalasi ham sessiyada ko'rib chiqiladi.

Doimiy komissiyaning ish rejasi mazmunan aniq bo'lishi, unda tadbirlarni bajarish muddati va doimiy komissiya a'zolari orasidan mas'ul ijrochilar ko'rsatilishi shart. Doimiy komissiyaning ish rejasiga kiritiladigan tadbirlar doimiy komissiyaning vakolatlariga mos kelishi, ya'ni ularni amalga oshirish qonunchilikda ko'zda tutilgan vakolatlari doirasidan chiqmasligi lozim. Ish rejasini tuzishda xalq deputatlari tuman yoki shahar Kengashi doimiy komissiyasining ish rejasidagi tadbirlar xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyasining tadbirlarini takrorlamasligi juda muhim.

Doimiy komissiyaning ish rejasini tuzishda uning ijrosini ta'minlaydigan doimiy komissiya a'zolarining fikr-mulohazalari, umumdavlat dasturlari nuqtai nazaridan mahalliy Kengash oldida turgan umumiy vazifalar hisobga olinishi zarur. SHuningdek, rejalashtirilgan tadbirlarni bajarish imkoniyati bo'lgan, doimiy komissiyaning zimmasiga yuklanadigan a'zolari esa tashkilotchilik qobiliyatiga, tegishli tajriba va bilimga ega bo'lishi kerak. Zarurat tug'ilganda, rejalashtirilgan

tadbir faoliyat sohasiga daxl qiladigan davlat organining vakili ijrochilar safiga kiritilishi mumkin.

**Mahalliy Kengash deputatining shaxsiy ish rejasi.** Har bir deputat zimmasiga ular saylov jarayonida bergan va'dalarini og'ishmay bajarishidan iborat alohida ma'naviy mas'uliyat yuklanadi. Shu bilan bir qatorda, deputatning zimmasida uni mahalliy Kengash deputatligiga nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiya manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ham majburiyatlari yuzaga keladi. Hozirgi kunda mahalliy Kengash deputatining vakolatlari va majburiyatlari «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilab berilgan.

Har bir deputati o'zining deputatlik vakolatlarini samarali bajarishi uchun, eng avvalo, oldida turgan ishlar ko'lamini hamda saylovchilar ishonchini oqlash uchun aynan o'zi nimalarni amalga oshirishi lozimligini aniq tasavvur qilishi kerak. Bunda o'z faoliyatini puxta rejalashtirish katta ahamiyatga ega. Rejalashtirish deputatga ishini batartib olib borish, aniq strategiya ishlab chiqish, e'tiborini qaratishi zarur bo'lgan eng ustuvor vazifalar va sohalarni belgilab olish imkonini beradi. Aniq va puxta o'ylangan shaxsiy ish rejasining mavjudligi deputatga o'z ish vaqtini tejamkorona taqsimlash va jamiyatga ko'proq foyda keltirishi imkoniyatini yaratadi.

**Shaxsiy ish rejasini tuzayotganda deputatlik faoliyatining quyidagi yo'nalishlarini hisobga olish zarur:**

- mahalliy Kengashning sessiyalarida, shu jumladan ko'rilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berishda ishtirok etish;
- mahalliy Kengashning o'zi a'zo bo'lgan doimiy komissiyalarida ishlash;
- mahalliy Kengashda tashkil etilgan partiya guruhida ishlash;
- deputatning saylovchilar bilan, uni mahalliy Kengash deputatligiga nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan ishlash.

Deputatining sessiyalarda va doimiy komissiyalarning majlislarida ishtirok etish bilan bog'liq ishini rejalashtirishda, birinchi o'rinda, mahalliy Kengash va

doimiy komissiyaning ish rejalarida belgilangan tadbirlarni hisobga olish lozim. Bunda rejalashtirilayotgan tadbirlar bir vaqtga to'g'ri kelib qolmasligi juda muhim. Masalan, doimiy komissiya majlisining sanasi va vaqti deputatning saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazish sanasi va vaqti bilan bir xil bo'lmasligi kerak.

Deputat saylovchilar bilan, uni nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan ishlashni rejalashtirayotganda uchrashuvlar o'tkazish sanasi, joyi va vaqtini, bu uchrashuvlarga tayyorlanish zarurligini hamda uchrashuvlar mavzuini belgilashni hisobga olishi kerak. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq deputat vaqti-vaqti bilan, biroq yiliga kamida ikki marta o'z faoliyati haqida saylovchilarni xabardor qilib turishi shart. SHu tufayli deputatning shaxsiy ish rejasida bunday tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, shu jumladan mahalliy Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarni tushuntirish bilan bog'liq tadbirlar bo'lishi kerak. Ayni vaqtda, joylarda ishlaydigan senatorlar zimmasiga ham Senat va Senat Kengashining yalpi majlislarida ko'riladigan masalalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish vazifasi yuklatiladi.

Ommaviy axborot vositalari bilan ishlash deputat faoliyatining muhim yo'nalishidir. SHuning uchun deputatning shaxsiy ish rejasida uning televidenie va radio orqali chiqishlarining aniq jadvali va mavzulari, shuningdek davriy matbuot nashrlarida chop etishni mo'ljallagan maqolalarining nomi va tayyorlash muddatlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Bunda chiqishlar va maqolalarning mavzusi deputatning kasbiy yoki ilmiy faoliyati bilan emas, birinchi navbatda deputatlik faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng dolzarb masalalari, aholining tashvishiga sabab bo'ladigan dolzarb muammolarni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bunday chiqishlarning mavzusi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Deputatning shaxsiy ish rejasi konferensiyalar, davra suhbatlari tashkil etishni yoki mahalliy Kengash yoxud mahalliy Kengash joylashgan hududdagi davlat va nodavlat tashkilotlari uyushtiradigan bunday tadbirlarda ishtirok etishni ko'zda tutishi mumkin. Mazkur tadbirlarda ishtirok etish deputatga o'z



dunyoqarashini ancha kengaytirish va huquqiy bilimlari saviyasini yanada oshirish imkonini beradi. SHuni hisobga olgan holda, deputatning shaxsiy ish rejasi deputat o'qishini tashkil qilish choralari, masalan, uning Senat qo'mitalari yoki komissiyalari tomonidan joylarda vakillik hokimiyat organlari faoliyatini jadallashtirishga ko'maklashish bo'yicha tashkil qilinadigan seminarlarda ishtirok etishini ko'zda tutishi mumkin.

Deputatining shaxsiy ish rejasi, qoida tariqasida, muayyan tarzda tasdiqlanishi shart emas. Biroq uning nusxasi doimiy komissiyaning faoliyatiga oid hujjatlar ichida bo'lishi lozim. Bunda rejalashtirilgan tadbirlarning aniqligi, ularni bajarishning qat'iy belgilangan muddatlari mavjudligi va nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish jadvaliga rioya qilish deputatning ish rejasi oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib qolishi kerak.

## **II-BOB. O'zbekiston Respublikasi mahalliy vakillik va hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalari faoliyatini amalga oshirishining huquqiy mexanizmi.**

### **2.1. Xalq deputatlari Kengashlarida sessiyalar, doimiy komissiyalar faoliyatining tashkil etilishi.**

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga muvofiq, mahalliy Kengashlarning asosiy ish shakli sessiyadir. Mahalliy Kengash sessiyalari tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Tegishli viloyat, tuman yoki shaharni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishga oid masalalarni yanada tezroq hal etish maqsadida mahalliy Kengashlar navbatdan tashqari sessiyalarni ham o'tkazishlari mumkin. Bu ham hokimiyat vakillik organlari ishining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda mahalliy Kengashlar uchun belgilangan deputatlar soni ham (xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga 60 nafargacha, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga 30 nafargacha deputat saylanadi) mahalliy Kengash sessiyalarini tezkorlik bilan tashkil etish va o'tkazish imkonini beradi<sup>23</sup>

Mahalliy Kengashning har yili kelgusi yilga mo'ljallab tuziladigan ish rejasiga kiritiladigan masalalar, qoida tariqasida, mahalliy Kengash sessiyalarida ko'rib chiqilishi lozim.

Mahalliy Kengashning sessiyalariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha tashkiliy faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni aniqlash;

ishchi guruhlar tuzish;

sessiya belgilangan kun va uning kun tartibiga kiritilayotgan masalalarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

qonunga muvofiq deputatlarga sessiya belgilangan kundan kamida etti kun oldin bo'lajak sessiya to'g'risida xabarnoma va ko'riladigan masalalar yuzasidan tayyorlangan hujjatlar loyihalarini yuborish;

deputatlarni va sessiyaga taklif etilganlarni ro'yxatga olish;

tahrir guruhlarini tuzish.

Tashkiliy masalalarni hal qilishdan tashqari, mahalliy Kengash sessiyasi qatnashchilarining samarali ishlashlari uchun zarur bo'lgan boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish ham muhim ahamiyatga ega. Mahalliy Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritishga mo'ljallangan masalalarni oldindan tayyorlash va muhokama jarayonida ishtirok etish uchun imkon qadar ko'proq deputatlarni jalb qilish, ko'rilayotgan masalaga daxldor korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari, mutaxassislar fikrini o'rganish hamda ular bilan munozaralar o'tkazish zarur. Mahalliy Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritilgan masalalarni oldindan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, ushbu masalalar yuzasidan aholining fikrini o'rganishda fuqarolarning taklif va mulohazalarini tegishli doimiy

komissiyalar majlislarida ko‘rib chiqish ham maqsadga muvofiqdir<sup>14</sup>. Ayni bir vaqtda mahalliy Kengash sessiyasida qabul qilingan qarorlarni viloyat, tuman, shahar gazetalarida e‘lon qilish, ularning ijrosini nazoratga olish, mahalliy Kengash qarorlarining ijro etilishi haqidagi axborotlarni muntazam tahlil qilib borish tavsiya etiladi<sup>15</sup>.

Deputatning Kengash sessiyasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish ishlarida ishtirok etishining shakllari har xil. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, deputat:

mahalliy Kengashning doimiy hamda muvaqqat komissiyalariga saylash va saylanishga;

mahalliy Kengashning majlisida ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

mahalliy Kengash majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko‘rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;

mahalliy Kengash tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo‘yicha fikr bildirishga;

mahalliy Kengashning majlisida munozaralarda ishtirok etishga, ma‘ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berishga;

deputat so‘rovi bilan murojaat etishga;

o‘z takliflarini asoslab berish uchun so‘zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berishga;

mahalliy Kengashning majlisida raislik qiluvchiga majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o‘z nutqi, taklifi yoki mulohazasi matnini topshirishga;

---

<sup>23</sup>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, ularning doimiy komissiyalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari faoliyatini tashkil etishning ayrim jihatlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar.2012

mahalliy Kengashning qaysi organi tarkibiga kiritilgan bo'lsa, shu organning qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini mahalliy Kengashning majlisida bayon etishga yoki bu haqda mahalliy Kengashning rahbariga yozma ravishda ma'lum qilishga;

mahalliy Kengashga hisobdor yoki uning nazorati ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini mazkur Kengashning majlislarida eshitish to'g'risida taklif kiritishga;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek mahalliy Kengash qarorlarining bajarilishini tekshirish to'g'risida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

mahalliy Kengash majlislarining stenogrammalari bilan tanishishga haqli.

Mahalliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yiladigan masalalar to'g'risida xabar olgach, deputatlar ushbu xabarni o'z okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan muhokama qilishlari mumkin.

Deputatlar ishchi guruhlar yoki doimiy komissiyalar majlislarida fikr almashuv deputatga muhokama qilinayotgan masalalarni har tomonlama tahlil qilishga va o'z nuqtai nazarini to'g'ri belgilab olishga imkon beradi. Agar muhokama qilinayotgan masala o'zi ishlab turgan tashkilotning manfaatlariga daxldor bo'lsa, deputat o'z jamoasidagi hamkasblari va mutaxassislar bilan ham fikr almashishi mumkin. Bunday muhokama deputatga sessiya kun tartibiga kiritilgan masalalarni chuqur tahlil qilishga, ma'ruza vaqtida o'z fikrini aniq va lo'nda bayon qilishga, asoslantirilgan taklif va e'tirozlar bildirishga imkon beradi<sup>24</sup>.

Deputatlarning sessiyaga tayyorgarlik ko'rish jarayonidagi ishtiroki qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, biron-bir kamchilik aniqlangudek bo'lsa, sessiya ochilishidan avval ularni bartaraf etishning amaliy choralarini ko'rish va takrorlanishi ehtimolining oldini olishi maqsadga muvofiqdir. Sessiyaga tayyorgarlik ishlarining to'g'ri tashkil qilinishi, unda deputatlarning faol ishtirok

---

<sup>24</sup>Normurodov H. Doimiy komissiya nima degani va u qanday vakolatlarga ega? // Zarafshon, 2002 yil, 2 noyabr soni,

etishi tayyorgarlikning ilk bosqichidayoq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishning turli yoʻnalishlarida ishni yaxshilash imkonini beradi. Bu sessiyaga tayyorgarlik ishlari davrida deputat faoliyatining muhim jihatidir, chunki tekshirish shunchaki rasmiyatchilik emas, balki kamchiliklarni bartaraf qilishning, ishni yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanishning taʼsirchan vositasidir<sup>25</sup>.

Deputatlar sessiyada koʻrib chiqish uchun kiritilgan masalalar boʻyicha qarorlar loyihalarini tayyorlashda faol ishtirok etishlari lozim. SHu munosabat bilan deputatlarga doimiy komissiyalar, hokimlik boshqarma yoki boʻlimlari tomonidan ishlab chiqilgan qarorlarning loyihalarini sessiya ochilishidan bir necha kun oldin yuborish tavsiya etiladi. Bunday hollarda loyihalarni olgan deputatlar ularni ishchi-xizmatchilar, mutaxassislar oʻrtasida hamda fuqarolarning yigʻinlarida muhokama qilishlari mumkin boʻladi. Muhokamalar vaqtida bildirilgan takliflar va tanqidiy mulohazalar qaror loyihasini ishlab maromiga etkazishda inobatga olinishi mumkin.

Deputatning mahalliy Kengash sessiyasida masalalarni muhokama qilish jarayonidagi faolligi va amaliy ishtiroki darajasi deputat maʼruzasining sifati va mazmuniga bogʻliq. Puxta oʻylab tuzilgan, deputatlar muhokamasiga qoʻyilgan masalani mohiyat-eʼtibori bilan qarab chiqishga yordam beradigan maʼruza hamisha diqqatni jalb etadi, deputatlarni oʻz fikr va mulohazalarini bayon etishga, tajribalarini oʻrtoqlashishga undaydi.

Deputat soʻrovi bilan murojaat qilish — deputatning eng muhim huquqlaridan biri. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga binoan, deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki oʻz nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan deputat soʻrovi yuborishga haqli. Deputat soʻrovining maqsadi hokimliklar, ularning

---

<sup>25</sup>Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining 2000 yildagi tashkiliy faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kotibiyatining joriy arxivi

boshqarmalari va bo'limlari faoliyatidagi, mahalliy Kengash hududida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf qilish yoki bo'shliqlarni to'ldirishdir. Deputat so'rovi ayrim deputat tomonidan ham, deputatlar guruhi tomonidan ham berilishi mumkin.

Deputat so'rovini mahalliy Kengash sessiyasida so'zlayotgan shaxsga beriladigan savol yoki deputat tomonidan fuqarolarning murojaatlari xususida yuboriladigan xatlar bilan almashtirmaslik kerak. Ma'ruzachiga savol berilganda uning ma'ruzasidagi yoki qo'shimcha ma'ruzasidagi biron-bir fikr aniqlab olinadi. Deputat so'rovi mahalliy Kengash sessiyasida masalalarni muhokama qilish vaqtida bildirilgan tanqidiy mulohazalar va takliflardan farq qilishi kerak.

Deputatga deputat so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari mazkur so'rov olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yuborishlari shart. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, sudlarning raislariga, prokurorlarga, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlariga yo'llangan deputat so'rovi ularning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo'lmasligi kerak. Deputat so'rovlari bo'yicha axborot mahalliy Kengashning majlisida muhokama qilinishi mumkin, muhokama natijasi bo'yicha mazkur Kengash tegishli qaror qabul qiladi.

Deputatning sessiyadagi faoliyati uning mahalliy Kengash organiga saylash va saylanish huquqini amalga oshirishi, masalalarni muhokama qilish hamda qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi, so'rovlar berishi va shu singarilar bilan cheklanib qolmaydi. Sessiyalarda deputatlarning o'z deputatlik vazifalarini, mahalliy Kengash va uning organlari qarorlari hamda topshiriqlarini qanday bajarayotganliklari to'g'risidagi axborotini eshitish ularning mas'uliyatini oshirishga, deputatlarning mahalliy Kengashlar va ularning organlari bilan o'zaro munosabatlari shakllarini takomillashtirishga yordam beradi, mahalliy Kengashlarning ishini yanada xilma-xillashtiradi, deputatlik faoliyatining ijobiy tajribasini keng ommalashtirishga xizmat qiladi<sup>17,26</sup>

---

<sup>26</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, ularning doimiy kommissiyalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari faoliyatini tashkil etishning ayrim jig'atlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar.2012

Deputatlar sessiyalarda hisobot berar ekanlar, faqatgina qilgan ishlari haqida gapirish bilan cheklanib qolmay, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini tubdan yaxshilash masalalarini ko'tarishlari, bu boradagi vazifalarni bajarish, muammolarni hal etish yo'llarini ko'rsatishlari, hokimlik, uning boshqarma va bo'limlarining xalq xo'jaligining turli sohasi ishlaridagi kamchiliklarga xolislik bilan baho berib o'tishlari kerak.

Sessiyaning muhokama etilayotgan masalalar sohasidagi ishlarning ahvoriga ta'siri ko'p jihatdan mahalliy Kengash qabul qilgan qarorlarning aniqligiga va muayyan maqsadlarga qat'iy qaratilganligiga bog'liq.

Har tomonlama puxta qaror faqat deputatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan ishlab chiqilishi mumkin. Tushgan takliflarni o'rganish va ularni qaror loyahasiga kiritish uchun deputatlar orasidan tahrir guruhi tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Hokimlikning tegishli ishlarni masalalar muhokama qilinayotgan vaqtda deputatlar bildirgan tanqidiy mulohazalar va takliflarni hisobga olgan holda bajarishi mahalliy Kengash sessiyalarida deputatlar faolligini rag'batlantirishning muhim omilidir. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, hokimlikda deputatning har bir taklifi va mulohazasiga e'tibor bilan qaralgan, bu takliflar va mulohazalar amalga oshirilgan joylarda deputatlar ishi yana ham faollashmoqda, ularning taklif va mulohazalari esa ko'lamdor mazmun va salmoq kasb etmoqda.

Ma'lumki, so'zlashni istagan hamma deputatlarning ham sessiyada so'zga chiqishiga ba'zan imkon bo'lmaydi. SHu munosabat bilan deputatning «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan huquqi — muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z takliflari va mulohazalarini sessiyada raislik qiluvchiga yozma ravishda topshirish huquqi muhim ahamiyatga ega. Deputatlarning yozma takliflari va mulohazalari sessiya bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi, hokimlik esa ularni amalga oshirish chorasini ko'rishi kerak. Buning

---

natijasida deputatlarning sessiya ishlarida yanada faol ishtirok etishlariga erishiladi.

Mahalliy Kengash qarorlarini bajarish — hokimliklar, ularning boshqarmalari va bo‘limlarining, tegishli hududdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vazifasidir. Hozirgi vaqtda Kengash qarorlarining amalga oshirilishi uchun deputatlarning faol ishtiroki zarur. Bu o‘rinda deputatlar tashkiliy ishlarning turli shakllaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, sessiyadan keyin deputatlar darhol o‘z saylov okruglarida, mehnat jamoalarida keng tushuntirish ishlarini olib borishlari, saylovchilarni mahalliy Kengash qabul qilgan qarorlarni bajarishda ishtirok etishga safarbar qilishlari mumkin. Hozirgi kunda Xalq deputatlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda bir qator **kamchiliklar** ham uchrab turibdi. Bular Xalq deputatlari Kengashi qarorlarining matnlarida odatda ko‘pgina hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorining nomi uning mazmuniga mos bo‘lmaydi. Xalq deputatlari kengashi qarorlarining matnlarida normativ-huquqiy hujjatlarga havolalar qilinganda ularning rekvizitlari – normativ-huquqiy hujjatning qabul qilingan sanasi va raqami to‘liq ko‘rsatilmaydi. Xalq deputatlari kengashining qarorlaridagi topshiriqlar rasmiyatchilik uchungina beriladi, ya’ni topshiriqlar aniq va tushinarli bo‘lmaydi. Ba’zan esa xalq deputatlari Kengashining qarorlarida mazkur qarorning ijrosi zimmasiga yuklatilgan aniq ijrochilar ko‘rsatilmaydi.<sup>27</sup>

Yana bir jiddiy kamchilik sifatida xalq deputatlari Kengashining qarorlarida bayon etilgan topshiriqlarni ijro etish muddati, ushbu qarorlardagi topshiriqlar ijrosini ta’minlashga ma’sul bo‘lgan shaxslarning belgilanmaganligini ko‘rsatishimiz mumkin. Ayrim xollarda esa xalq deputatlari Kengashi qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish xalq deputatlari Kengashining doimiy kommissiyalari yoki deputatlari emas balki hokimlik apparatining mansabdor shaxslariga yoki hokim o‘rinbosarlari – tegishli majmualar rahbarlari zimmasiga yuklatilganligining

---

<sup>27</sup> Xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy kommissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomning 3-moddasi. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ayrim masalalariga oid qo'llanmalar. - T., 2000.



guvohi bo‘lamiz. Xalq deputatlari Kengashlarining o‘z faoliyatlarida bunday kamchiliklarga yo‘l qo‘yishlari xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosi bilan bog‘liq ishlar samaradorligiga xam, deputatlarning faoliyatiga ham ijobiy ta’sir qilmaydi.

Doimiy komissiyalar mahalliy Kengash faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lish bilan bir vaqtda deputatlar va fuqarolarni davlatni boshqarishda ishtirok etishga jalb qilishning muhim vositasi hamdir.

YUqorida ko‘rsatilganidek, doimiy komissiyalar mahalliy Kengashning samarali faoliyat ko‘rsatishiga ko‘maklashuvchi organ bo‘lib, mahalliy Kengashning butun vakolat muddatiga saylanadi. SHu bilan birga doimiy komissiyalar mahalliy Kengashlarga va hokimliklarga yordam berish bilan bog‘liq ishlar bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ravishda bir qator tadbirlar o‘tkazishlari ham kerak.

Doimiy komissiyalar mahalliy Kengashlarning birinchi sessiyalarida, mahalliy sharoitlar va xususiyatlar hisobga olingan holda, xo‘jalik, madaniy, iqtisodiy va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha tuziladi<sup>28</sup>.

Doimiy komissiyalarning tashkiliy ishlari darajasi, samaradorligi, eng avvalo, komissiyalar tarkibiga saylangan deputatlarning faolligiga, ularning o‘zlariga berilgan huquqlardan foydalana olishlariga bog‘liq. Doimiy komissiyalar tarkibi ko‘rilayotganda ularga eng tashabbuskor, tajribali kishilar boshchilik qilishi nazarda tutilmog‘i, komissiyalarning a‘zolari saylanayotganda deputatlarning bilimi, tashkilotchilik qobiliyati, tajribasi, mashg‘ulot turi va hokazolar hisobga olinmog‘i kerak<sup>29</sup>.

Mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalarida deputatlar bajaradigan ishlarning asosiy shakl va usullari quyidagilardan iborat.

---

<sup>28</sup>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, ularning doimiy komissiyalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari faoliyatini tashkil etishning ayrim jig‘atlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. 2012.

<sup>29</sup> Xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomning 3-moddasi. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ayrim masalalariga oid qo‘llanmalar. - T., 2000.

Deputat doimiy komissiyaga saylanganidan keyin, birinchi navbatda qanday masalalar bilan shug'ullanishini aniqlab olishi kerak. Hokimliklar deputatlarga yordam berish maqsadida birinchi sessiyadan keyinoq darhol doimiy komissiyalarning a'zolari bilan seminarlar va boshqa tadbirlar o'tkazishlari, ularda tegishli hokimlikning, uning boshqarmalari va bo'limlarining rahbarlari, komissiyalarning a'zosi bo'lmish deputatlar tajriba almashishlari, xo'jalik va madaniy qurilishning muayyan sohasida mahalliy Kengash oldida turgan vazifalarni bajarish uchun komissiyaning qaysi ish shakllari va usullari maqsadga muvofiqligini asoslab berishlari joiz deb qaraladi. Doimiy komissiyalarning rahbarlari o'z huquq va majburiyatlarini puxta bilishlari juda muhimdir. Doimiy komissiyalarning ish tajribasida shunday qat'iy bir tartib qaror topganki, unga muvofiq komissiya raisi komissiyaning barcha ishiga rahbarlik qiladi, majlislar chaqiradi va ularda raislik qiladi, materiallarni umumlashtiradi va qaror loyihalarini tayyorlaydi, komissiya ish rejasining bajarilishini nazorat qilib turadi, topshiriqlar beradi, komissiya nomidan hokimlik, uning boshqarmalari va bo'limlari bilan, mahalliy Kengash hududida joylashgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Komissiya kotibi unga har tomonlama yordam beradi va komissiya ish hujjatlarini yuritadi.

Doimiy komissiya shug'ullanadigan masalalar uning ish rejasida belgilab qo'yiladi. Rejalar joriy davrga (yil choragi) hamda istiqbolga (yillik va Kengashning vakolat muddatiga) mo'ljallab tuziladi. Aniq harakat rejasi komissiyalar ishini tashkil qilishning asosidir. SHuning uchun har bir reja, har bir masala komissiya a'zolarining faol ishtirokida ishlab chiqiladi. Faqat shundagina masalalar doirasini to'g'ri belgilash, e'tiborni ko'proq ijtimoiy ahamiyatga molik dolzarb muammolarga qaratish mumkin bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda doimiy komissiyalar amaliyotiga yillik ish rejasi tuzish tajribasi mustahkam kirib bormoqda. Bunday rejalar odatda uch qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismda komissiyalar mahalliy Kengash muhokamasiga kiritilishi lozim bo'lgan yirik muammolarni o'rganishni rejalashtiradilar. Ikkinchi qismda hokimlikda muhokama etish uchun tayyorlanadigan masalalar nazarda tutiladi.

Uchinchi qismda doimiy komissiyalarning o'z majlislarida muhokama qilish mo'ljallanayotgan, nazorat-tahlil faoliyati bilan bog'liq masalalar aks ettiriladi. Odatda doimiy komissiyalar o'z yillik rejalarini hokimlikning, uning boshqarmalari va bo'limlarining yillik rejalarini hisobga olgan holda tuzadilar. Deputatning ish rejalarini tuzish asosiy va hal qiluvchi o'rin tutadi. Doimiy komissiyaning har bir a'zosi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan komissiya muhokamasiga masalalar kiritish va masalalarni muhokamaga tayyorlashda faol ishtirok etish huquqiga ega.<sup>30</sup>

Doimiy komissiyaning to'g'ri tuzilgan ish rejasi doimiy komissiyalar oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ko'p jihatdan ta'minlaydi.

Belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, odatda, faoliyati muhokamaga qo'yiladigan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlardagi haqiqiy ahvolni o'rganishdan boshlanadi. Doimiy komissiyalarda ko'rib chiqish uchun masalalarni, mahalliy Kengash sessiyasida qilinadigan ma'ruza yoki qo'shimcha ma'ruzani tayyorlash ham odatda, nazorat va tahlildan boshlanadi. Shuning uchun doimiy komissiyalar tarkibiga kirgan deputatlarning nazorat-tahlil ishlaridagi ishtiroki ularning faoliyatidagi muhim jihatlardan biridir.<sup>31</sup>

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida doimiy komissiya tarkibiga kirgan deputatning, mazkur organ ko'rib chiqishi uchun har qanday masala va taklif kiritish, bu masalalarni ko'rib chiqish uchun tayyorlashda, ularni muhokama qilish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilishda, shuningdek qabul qilingan qarorlar

---

<sup>30</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, ularning doimiy komissiyalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari faoliyatini tashkil etishning ayrim jig'atlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar. 2012.

<sup>31</sup>Xalq deputatlari viloyat Kengashlarining doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomning 8-moddasi. Xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomning 3-moddasi. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ayrim masalalariga oid qo'llanmalar. - T., 2000

ro'yobga chiqarilishini tashkil etish va ularning bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etish huquqi o'z aksini topgan.

Doimiy komissiya raisi tekshirish boshlanishi oldidan har bir deputatning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, komissiya a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi. Bunda muhimi, doimiy komissiyaning har bir a'zosiga topshiriq berilgan bo'lishi kerak.

Doimiy komissiyalar ichida kichik komissiyalar yoki seksiyalar tuzilishi, ularning muayyan masalalar bilan shug'ullanishi esa ijobiy samara berishi mumkin.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, vazifalarni doimiy komissiya a'zolari o'rtasida taqsimlashni har bir konkret holda o'rganilayotgan masalaning xususiyatiga qarab o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ammo vazifalarni qayta-qayta taqsimlayverish ham deputatlar tashabbuskorligini pasaytirib yuboradi, masalalarni hal etishga ijodiy yondashish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Deputatlarga nazorat-tahlil ishlarini o'tkazishda ko'maklashish maqsadida doimiy komissiyalarning rahbarlari hokimliklar yordamida savol varaqalari va xatlar tayyorlab, nimalarga e'tibor berish zarurligini, tekshiruvni qay yo'sinda to'g'ri tashkil etish kerakligini ko'rsatishlari, ayniqsa doimiy komissiyalar tarkibiga birinchi marta saylangan deputatlarga katta yordam beradi.

Nazorat-tahlilga oid hujjatlar doimiy komissiyaning raisi yoki kotibida saqlanadi. Doimiy komissiyalarning raislari yoki shu ish topshirilgan a'zolari ma'lumotlarni umumlashtiradilar, ma'ruzalar, qo'shimcha ma'ruzalar va qaror loyihalari matnlarini tayyorlaydilar.

Amaldagi qonunlarga binoan doimiy komissiyalarning a'zolari zarur hollarda hokimlikning boshqarmalari va bo'limlari rahbarlaridan, mahalliy Kengash hududida joylashgan korxonalar, muassasa va boshqa tashkilotlarning rahbarlaridan tegishli hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega.

Ma'lumki, har qanday tekshirishdan maqsad faqat kamchilik va nuqsonlarni topish emas, balki aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishda tashkilotlarga va muassasalarga har tomonlama yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib, bu har bir

deputatning burchidir. Doimiy komissiyalar faoliyatida to‘plangan tajriba shundan dalolat beradi.

Doimiy komissiya kollegial organdir. SHuning uchun komissiyaning raisi va kotibi o‘z xohishi bilan komissiya nomidan biron-bir qaror qabul qila olmaydi. Ular faqat komissiya a‘zolari faoliyatini uyushtiradi va yo‘naltirib turadi. Masalani hal qilishda uzil-kesil so‘zni deputatlar aytadilar.

Doimiy komissiyalar faoliyatining asosiy shakli majlislar bo‘lib, ular komissiya a‘zolarining ko‘pchiligi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatli hisoblanadi. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida deputat o‘zi saylangan doimiy komissiyaning ishida faol ishtirok etishi shart, deb ko‘rsatilgan. SHuning uchun komissiya a‘zosining komissiya majlislarida muntazam ishtirok etishi uning asosiy burchidir<sup>32</sup>.

Doimiy komissiyaning har bir a‘zosi komissiya majlislarida hal qiluvchi ovoz huquqi bilan qatnashadi. Masalalarni muhokama qilish vaqtida doimiy komissiya a‘zolari o‘zlarining taklif va mulohazalarini bildiradilar. Doimiy komissiya majlislarida shu komissiya a‘zosi bo‘lmagan boshqa deputatlar maslahat ovozi bilan qatnashishlari mumkin.

Doimiy komissiya majlislariga faoliyati muhokamaga qo‘yilayotgan muassasa va tashkilotlarning rahbarlarigina emas, balki turli tarmoqlar mutaxassislari ham taklif qilinadi, bu esa muhokama qilinayotgan masalaning mohiyatini chuqur o‘rganishga yordam beradi.

SHuni ta’kidlash joizki, ayrim masalalar bir nechta komissiyalarning kuchi bilan tayyorlanishi ham mumkin. Bu deputatlarga bir vaqtning o‘zida bir qancha masalalarni o‘rganishga, tekshirilayotgan yo‘nalishdagi ahvolni chuqur va har tomonlama tahlil etishga, amaliy takliflar ishlab chiqishga, joyning o‘zida yordam ko‘rsatishga imkon beradi. Doimiy komissiyaning majlislarida hamma qarorlar ochiq ovoz berish asosida ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Doimiy

---

<sup>32</sup>Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining 2000 yildagi tashkiliy faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotnoma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kotibiyatining joriy arxivi

komissiyaning har qanday a'zosi shu kollegial organning qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, bu haqda mahalliy Kengash sessiyasida chiqib so'zlash huquqiga ega.

Doimiy komissiyaning qarorlari tavsiya tusiga ega bo'ladi. Lekin ularning tavsiyalari tegishli davlat va jamoat idoralari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ko'rilgan chora-tadbirlar haqida komissiyalarga belgilangan muddatda xabar qilinishi kerak.

Masalalarni mahalliy Kengashning majlislari muhokamasiga tayyorlash, ularni o'z majlislarida muhokama qilish doimiy komissiyalarning muhim vazifasidir. Ishlab chiqilgan tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish doimiy komissiyalarga birlashgan deputatlarning muhim burchidir.

Doimiy komissiyalar mahalliy Kengashning organlari sifatida o'zlarini tashkil qilgan mahalliy Kengashning nazorati ostida ishlaydilar va o'z faoliyatlari haqida unga hisobot beradilar. Mahalliy Kengash komissiyalarning ishlarini yo'lga solib, faoliyatlarini nazorat qilib turadi, ularning hisobotlari va ma'ruzalarini eshitadi.

Deputatlarning doimiy komissiyalardagi ko'p qirrali faoliyati xalq vakillarining ishini tashkil etishning samarali shakli ekanligidan dalolat beradi.

Xalq deputatlari kengashi doimiy komissiyalari qarorlarininig matnida, odatda, quyidagi bir qator kamchiliklar uchraydi va bu kamchiliklar xalq deputatlar Kenashininig qarorlariga ham xosdir. Xalq deputatlar Kenashi doimiy komissiyasiga xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyasining qarorlarini ko'rib chiqish yakunlari to'g'risidagi axborotni taqdim etish tartibi yo'qligi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

## **2.2. Doimiy komissiya nazorat faoliyatini amalga oshirish mexanizmi**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasiga muvofiq doimiy komissiyalar mahalliy Kengashlar

vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshiradi. Ular mahalliy Kengash vakolatlari doirasida masalalarni hal etilishi, jumladan qonun hujjatlari ijrosi holatini kuzatadilar, tekshiradilar, ma'lumotlarni tahlil qiladilar va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishyuzasidan tegishlitavsiyalar ishlab chiqadilar, ya'ni monitoring o'tkazadilar. Bugungi kunda mahalliy Kengash vakolatlari doirasidagi ko'plab masalalarni hal etish holatini monitoring qilish mezonlari va tartiblari belgilangan. Doimiy komissiyalar tomonidan ulardan samarali foydalanishni tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Mahalliy Kengashlar vakolatlari doirasidagi masalalarni hal qilish tartibi tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ularni amalga oshirilishini nazorat qilishda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik birlashmalari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish hamda ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish tartibi rahbariy hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur tartib bilan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek o'z qarorlarining bajarilishi yuzasidan hisobotlar yuritishni va doimiy monitoringni amalga oshirishni tashkil etish bo'yicha ishlarning ro'yxati va izchilligi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan Tartibda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va xo'jalik birlashmalari, ularning hududiy tuzilmalari tomonidan qonun hujjatlari ijrosining monitoringi yuzasidan xisobotlar yuritilishi belgilangan. SHuningdek, bugungi kunda atrof tabiiy muhitni<sup>33</sup>, tashkil etilgan ish o'rinlari<sup>34</sup> va boshqa masalalar monitoringini yuritish to'g'risida nizomlarga muvofiq monitoring

---

<sup>33</sup>O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to'g'risidanizom. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 apreldagi 111-son qaroriga

<file:///C:/pages/getpage.aspx%3flact\_id=261168>ilova // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2002 y., 7-son, 49-modda.

<sup>34</sup> Tashkil etilgan ish o'rinlarini hisobga olish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom.O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining 2013 yil 6 maydagi 28-q, 31, 4q-2013-son qaroriga ilova // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 26-son, 344-modda

natijalari bo'yicha hisobotlar va boshqa ma'lumotlar tayyorlanadi. Doimiy komissiyalar o'zlariga taalluqli masalalar bo'yicha bunday hisobotlar va boshqa ma'lumotlarni davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslardan so'rab olishga haqli.

Doimiy komissiyaning har biri a'zosi o'zi mas'ul bo'lgan masalalar monitoringini tashkil qiladi. Monitoring natijalari asosida mas'ul deputat deputatlik so'rovini yuborish, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa hollari ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo'yish choralarini ko'rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etish huquqiga ega. Bulardan tashqari mas'ul deputat quyidagilarni tavsiya qilish huquqiga ega:

- doimiy komissiya majlisida qonun hujjati ijrosi yoki mahalliy Kengash vakolatlari doirasidagi boshqa masalalar yuzasidan davlat organlari axborotini tinglash;
- mahalliy Kengash muhokamasiga qonun hujjati ijrosi yoki mahalliy Kengash vakolati doirasidagi boshqa masalalar yuzasidan hokim, uning o'rinbosarlari, ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa strukturaviy bo'linmalarining hisobotlari va axborotlarini tinglash to'g'risidagi masalani kiritish;
- mahalliy Kengashlar muhokamasiga hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi masalani kiritish;
- hokimga mahalliy Kengashi va doimiy komissiya qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnoma kiritish.

Mas'ul deputat mahalliy Kengash muhokamasiga kiritilgan boshqa nazorat masalalarini doimiy komissiya tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilishi tashkil qiladi. Xususan, quyidagi masalalar to'g'risida mahalliy Kengash qaror loyihasi



bilan doimiy komissiyaning xulosasi beriladi:

- 1) hokim qarorlarini tasdiqlash;
- 2) mahalliy byudjet, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash va ularning ijrosini nazorat qilish;
- 3) viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini hamda tuman, shahar hokimlarini tasdiqlash;
- 4) mahalliy ijroiya hokimiyati organlari mansabdor shaxslarini tayinlash yoki tasdiqlash.

Senat komissiyasining 2012 yil 1 maydagi Qarori bilan «Namunaviy xalq deputatlari tuman kengashlari va ularning doimiy komissiyalari faoliyatini yanada kuchaytirish yuzasidan tadbirlar rejasi (namunaviy)»ni tasdiqlangan. Mazkur namunaviy tadbirlar rejasida namunaviy tuman Kengashlariga deputatlik nazoratini amalga oshirish borasida quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish tavsiya etilgan<sup>35</sup>:

- xalq deputatlari tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat qilish amaliyotini kuchaytirish;
- xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari, siyosiy partiyalarning deputatlik guruhlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan saylangan deputatlar guruhlari Kengash va doimiy komissiyalar qarorlari ijrosi yuzasidan nazorat olib borishi va tahliliy ma'lumotlarni doimiy ravishda tuman Kengashi rahbariga taqdim etish;
- xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda mutasaddi tashkilot rahbarlariga yuborilayotgan deputatlik so'rovlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish hamda ularning ijrosi yuzasidan doimiy monitoring olib borish;
- tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan hududiy va tarmoq dasturlarining ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rahbarlarning shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida ularning faoliyati yuzasidan hisobotlarni har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashining sessiyalarida yoki doimiy komissiyalar majlislarida eshitib borish amaliyotiga erishish;
- deputatlik so'rovlariga javob bermagan yoki to'liq javob bermagan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunda ko'zda tutilgan choralarni ko'rish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi rahbariga qonunda belgilangan tartibda takliflar kiritish .

Bugungi kunda Senat Kengashining 2009 yil 31 iyuldagi Qarori bilan tasdiqlangan «Xalq deputatlari mahalliy Kengashi va xalq deputatlari mahalliy

---

<sup>35</sup>Senat va mahalliy Kengashlar: amaliy va uslubiy ko'mak, o'zaro hamkorlik: ilmiy-amaliy qo'llanma / M.A. Radjabova, A.A. Maxmudov. - Toshkent: Baktriyapress, 2013. B. 75-77.

Kengashi doimiy komissiyalari qarorlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga doir tavsiyalari» ishlab chiqilgan, shuningdek ayrim tadqiqotchilar tomonidan doimiy komissiyalarning nazorat faoliyatini tashkil etishga oid muayyan tavsiyalar berilgan<sup>36</sup>. Ushbu tavsiyalarni umumlashtirgan holda doimiy komissiyalar nazorat faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Doimiy komissiyalar majlislariga tayyorgarlikning **birinchi bosqichida** quyidagi tadbirlarni o'tkazish:

a) o'rganish taklif etilgan yoki topshirilgan masala bo'yicha xulosa tayyorlovchi mas'ul shaxsni belgilash;

b) o'rganilayotgan masala bo'yicha zarur axborotni olish manbalarini, jumladan jamoatchilik fikrini o'rganish shakllarini tanlash (o'rganishlar, ma'lumotlar, tushuntirishlar so'rash va h.k.);

v) ishchi guruhini tuzish;

g) masalani tayyorlashga faollar, jamoatchilik vakillarini jalb qilish shakllarini belgilash.

**Ikkinchi bosqich.** O'rganilayotgan masala bo'yicha zarur axborot to'plashda quyidagilar amalga oshiriladi:

a) masalani o'rganish uchun axborot to'plashga zarur bo'lgan komissiya (ishchi guruh) a'zolari va faollarni jalb etish va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

b) zarur tekshiruv turini aniqlash va u bo'yicha eslatma (savolnoma) ishlab chiqish va mutasaddi tashkilotga yuborish;

v) ma'lum sohani tekshirish rejasini unga rahbarlik qiluvchi hokim o'rinbosari bilan kelishib olish;

g) ish materiallarini taqdim etish muddatlarini aniqlashtirish;

---

<sup>36</sup> Aliyev G', Sobirov I. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'llanma. -T.: "O'zbekiston". B. 143-144.

d) mas'ul shaxs (ishchi guruh) tomonidan to'plangan axborotlarni umumlashtiruvchi hujjat shakli va muddatlarini belgilash.

**Uchinchi bosqich.** To'plangan axborotni tahlil qilish va doimiy komissiya majlisiga kiritish jarayoni:

a) to'plangan axborot (ma'lumotnoma)ni umumlashtirish va tahlil qilish;  
b) aniq chora-tadbirlar belgilangan yakuniy hujjat loyihasini tayyorlash (xulosa, ma'lumotnoma, qaror loyihasi);

v) masalani doimiy komissiya majlisi kun tartibiga kiritish, uning majlisni chaqirish va bu haqda komissiya a'zolari, taklif etilgan va boshqa shaxslarni xabardor qilish;

g) majlis kun tartibidagi masalalarga oid hujjatlarni doimiy komissiya a'zolariga yuborish.

**To'rtinchi bosqich.** Doimiy komissiya majlisi:

a) komissiya mas'ul a'zosining yakuniy hujjat loyihasi va masalani hal qilishga qaratilgan tavsiyalari bo'yicha ma'ruzasi;

b) nazorat qilinayotgan tashkilotlar rahbarlari yoki mahalliy ijroiya hokimiyat organlari rahbari lavozimiga nomzod (vakillari)ning so'zga chiqishi;

v) ma'ruzalarni muhokama qilish;

g) ishlab chiqilgan tavsiyalar va qaror loyihasini muhokama qilish;

d) aniq chora-tadbirlar va tavsiyalarni o'z ichiga olgan qaror qabul qilish.

**Beshinchi bosqich.** Doimiy komissiya tavsiyalarini tatbiq etish bo'yicha tadbirlar:

a) doimiy komissiya qarorlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

b) doimiy komissiya tavsiyalarini mahalliy Kengash, manfaatdor organlar va mansabdor shaxslarga etkazish;

v) tavsiyalarni tatbiq etishni nazorat qilish (mahalliy Kengash sessiyada ma'ruza bilan chiqish);

g) doimiy komissiya qarorining amaliy ijrosini tashkil etish.

### **2.3. Doimiy komissiyalarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini rivojlantirish**

Fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolarning turli sohalardagi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan - nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'lim, diniy muassasalar, oila, ommaviy axborot vositalari va boshqalardan iboratdir. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy hayotning turli sohalarida inson manfaatlarini samarali ifoda etish vositasiga aylandi. Mahalliy Kengash qarorlarini qabul qilishda, jumladan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va ro'yobga chiqarishda doimiy komissiyalar, deputatlarning fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining ko'lami tobora kengayib bormoqda.

Doimiy komissiyalarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi, asosan, mahalliy Kengashlar va o'z qarorlarini qabul qilishga fuqarolarni jalb qilishga qaratiladi. Fuqarolarni qarorlarni qabul qilishga jalb qilish jarayonini quyidagi darajalarga ajratish mumkin:

FUQAROLAR			<b>Ishtirok etishdarajalari</b>	<b>FJI bilan hamkorlik shakllari</b>
	↔	<b>Ijtimoiy sheriklik</b>	NNTlar, fuqarolar bilan hamkorlikda qarorlar, dasturlar ishlab chiqish, qabul qilish, ular ijrosini nazorat qilish	
	➔	<b>Maslahatlashish</b>	Qabul qilinayotgan qarorlar, dasturlar yuzasidan fuqarolar fikrini o'rganish maqsadida davra suhbatlari o'tkazish, murojaatlar bilan ishlash...	
	➔	<b>Xabardor qilish</b>	ommaviy axborot vositalari, saylovchilar bilan uchrashuvlar orqali qabul qilinayotgan va qabul qilingan qarorlar, dasturlar va boshqa ma'lumotlarni fuqarolarga etkazish	

**Ijtimoiy sheriklik.** Mahalliy Kengashlar, ularning doimiy komissiyalari bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy sheriklik munosabatlari ularning birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar

muammolarni hal etish, aholi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi. Xususan, bugungi kunda mahalliy Kengashlar, ularning doimiy komissiyalari tomonidan yangi ish joylarini yaratish va aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini tasdiqlash, ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish va vakolatlari doirasidagi boshqa masalalarni hal qilishda kasaba uyushmalar, fuqarolar yig'inlari, "Kamolot" YOIH va boshqa tashkilotlar vakillari ishchi guruhlar tarkibiga kiritiladi, sessiya, doimiy komissiya majlislari, konferensiyalar va boshqa tadbirlarga jalb qilinadilar.

**Maslahatlashish.** Qabul qilinayotgan qarorlar va dasturlar to'g'risida xabardor fuqarolar ular yuzasidan o'z takliflarini berish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Fuqarolarning takliflarini olish va uyg'unlashtirish maqsadida ular bilan maslahatlashiladi, ya'ni qayta aloqalar o'rnatiladi va muloqot olib boriladi. Qayta aloqalarning qanchalik sifatli o'rnatilishi, deputatlarga mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga doir fuqarolar fikrlarini shunchalik aniq bilish imkonini beradi. Bu deputatlarga mahalliy Kengashlar, doimiy komissiyalar faoliyatining natijalarini hisobga olish va takomillashtirish vazifalarini yuklaydi. Maslahatlashish jarayonida doimiy komissiyalar tomonidan davra suhbatlari va seminarlar o'tkaziladi, fuqarolarning murojaatlari ko'rib chiqiladi. Bunda qonun loyihalari yuzasidan ommaviy axborot vositalari, Internet sahifalarida o'tkazilayotgan forumlar, telekanallardagi ochiq muloqotlar va fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari fikrini o'rganishning boshqa shakllaridan foydalanish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasining 2012 yil 18 fevraldagi 02–II-sonli qarori (ko'chirma)**

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari hamda ularning doimiy komissiyalariga (qo'mitalariga):

...

mahalliy ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish, ular orqali mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash, ayniqsa nodavlat notijorat tashkilotlar, jumladan fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari bilan ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yishga e'tibor berish;

... tavsiya etiladi<sup>37</sup>.

Xalq vakillarining o'z saylovchilari bilan maslahatlashish va muloqoti jarayonida axborot xizmatlari faol ishtirok etadilar. Ular mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga nisbatan ijtimoiy fikrning ahvolini, milliy hamda xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini tahlil qilish va ular to'g'risida hokim, deputatlarni xabardor qiladilar. Axborot xizmatlari tomonidan ommaviy axborot vositalarida, veb-sahifalarda, telekanalarda takshil etilayotgan ochiq muloqotlarda muayyan masalalar, jumladan qabul qilinayotgan qarorlar ko'rib chiqilishi mumkin.

**Fuqarolar yig'inlarining murojaatlari.** Jamoatchilik nazorati sub'ektlaridan kelib tushgan murojaatlar mahalliy Kengashlar, ularning doimiy komissiyalari qarorlarini qabul qilishda inobatga olinadi. Masalan, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini hamda shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar. Ushbu va boshqa murojaatlar ko'rib chiqilishini nazorat qilishda deputatlar, ularning guruhlar va doimiy komissiyalar ham ishtirok etadilar.

**Xabardor qilish.** Fuqarolarni mahalliy boshqaruvga jalb qilishning har bir darajasida doimiy komissiyalar, mahalliy Kengashlar ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan muayyan vazifalarni bajarish maqsadida hamkorlik qiladilar. Mahalliy Kengashlar, ularning doimiy komissiyalari faoliyati, qabul qilayotgan qarorlari bilan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning

---

<sup>37</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining arxivi

xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar hal qilinadi. Mahalliy Kengashlar «Axborot erkinligi kafolatlari va tamoyillari to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasiga muvofiq fuqarolarni bunday masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlaydilar. Mahalliy Kengashlar, ularning doimiy komissiyalari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, dasturlar to'g'risida fuqarolar mahalliy Kengashlar veb-sahifalari, ommaviy axborot vositalari, deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari va boshqa yo'llar bilan xabardor qilinadilar.

«Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida» Qonunining 5-moddasiga muvofiq ochiq bo'lishi lozim bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot belgilandi. Bunda axborotning ochiqligi fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Fuqarolarni qabul qilinayotgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish ularning fikrini shakllantirishga va o'z ehtiyojlarini aniq ifodalash, o'z takliflarini berish uchun sharoit yaratadi.

### **Samarqand viloyati tajribasi**

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi sessiyasida ko'riladigan muhim masalalar to'g'risida viloyat gazetalarida «Sessiyaga takliflaringiz bormi?» rukni ostida bir oy oldin xabar e'lon qilinadi, mazkur xabarlarda ishchi guruh bilan bog'lanish, taklif va mulohazalar bildirish uchun telefon raqamlari ham mavjud. SHuningdek, Kengash sessiyalarida ko'rilgan asosiy masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar xalq deputatlari viloyat Kengashi muassisligidagi bosma nashrlar orqali jamoatchilikka etkazib borilmoqda. Xususan, 2013 yilda viloyat Kengashining 2 ta sessiyasining 6 ta qarori «Zarafshon» gazetasida chop etilgan, viloyat Kengashi doimiy komissiyalari yig'ilishlari to'g'risida 3 ta maqola e'lon qilingan. «Zarafshon» gazetasida deputatlarning turli mavzuidagi maqolalari izchil

### **Doimiy komissiyalarning mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligi.**

Mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalarni o'z vakolatlarini amalga oshirishga ko'maklashish uchun tuzadilar. Doimiy komissiyalar o'z vazifalarini samarali bajarilishi uchun mahalliy Kengashlar oldida mas'ul va hisobdordir. Mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalar ishiga doir hisobotlarni tinglash vakolatiga egadir. Doimiy komissiyalarning hisobotlarini tinglash ularning faoliyatini yo'naltirish, mahalliy Kengash va aholi oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga qaratiladi.

Doimiy komissiyalarning hisobotlarini tinglash tartibi Reglamentda hozircha belgilanmagan. Odatda, doimiy komissiyalarning bir yillik yoki chaqiriq boshidan olib borgan faoliyati to'g'risidagi hisobotlari tinglanadi. Bunda doimiy komissiyalarning ish rejaları qay darajada bajarganligi ko'rib chiqiladi. Biroq har yili mahalliy Kengash sessiyalarida barcha doimiy komissiyalar hisobotlarini tinglash ko'p vaqtni oladi. Ba'zi viloyat va tumanlarda chaqiriq davomida ayrim doimiy komissiyalar faoliyati mahalliy Kengash tomonidan o'rganilib, deputatlar va faollar e'tiborini ularning ishidagi yutuq va kamchiliklarga qaratish orqali boshqa komissiyalar faoliyatini takomillashtirish amaliyoti mavjud.

Chaqiriq davomida mahalliy Kengash tomonidan barcha doimiy komissiyalar hisobotlarini kamida bir marta tinglash tajribasi e'tiborga loyiq. Muayyan doimiy komissiyaning hisobotini sessiyada tinglash, uning faoliyatini yo'naltirish va mas'uliyatini kuchaytirish barobarida, boshqa doimiy komissiyalar faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ammo doimiy komissiyaning hisoboti chaqiriq davomida sessiyada bir marta tinglanishi uning mahalliy Kengashga faqat bir marta hisobot taqdim qiladi degani emas. Mahalliy Kengashlarga doimiy

---

<sup>38</sup>Senat va mahalliy Kengashlar: amaliy va uslubiy ko'mak, o'zaro hamkorlik:ilmiy-amaliy qo'llanma / M.A. Radjabova, A.A. Maxmudov. - Toshkent: Baktriyapress, 2013. B. 61.



komissiyalarning hisobotlari har chorakda kamida bir marta taqdim etilishi ularning mas'uliyatini kuchaytirishga va faoliyatini samarali yo'naltirishga xizmat qiladi.

**Doimiy komissiyalar hisobotlarini umumlashtirish.** Mahalliy Kengashlaridagi Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya mahalliy Kengash deputatlari, doimiy komissiyalar va boshqa shaxslar tomonidan reglament normalariga rioya qilinishi, jumladan ularning ish rejalari, vazifalarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi va kamchiliklar aniqlanganda, ularni bartaraf qilish choralarini ko'radi. Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya ushbu vazifalarini bajarish doirasida doimiy komissiyalar hisobotlarini umulashtirib, Kengash sessiyasida axborot berib borishi maqsadga muvofiq. Barcha doimiy komissiyalar tomonidan har chorakda Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish amaliyotiga erishish zarur. Hisobotda, qoida tariqasida, chorakda, yarim yilda, to'qqiz oyda va bir yil davomida doimiy komissiya ish rejasining bajarilishi, faoliyati bo'yicha boshqa ma'lumotlar, jumladan aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ko'rilayotgan choralar va tavsiyalar (3-ilova) aks etadi.

Hisobot Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyaga bir nusxada doimiy komissiya raisi tomonidan imzolangan ilova xati bilan taqdim etiladi. Ushbu hujjatlarning elektron nusxalari ham elektron axborot tashish vositalarida taqdim etiladi yoki ular elektron pochta tizimi orqali yuboriladi.

**Doimiy komissiya hisobotining monitoringi.** Kelib tushgan hisobot Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisiga topshiriladi. Rais hisobotni ish taqsimotiga ko'ra mas'ul deputatga topshiradi. Mas'ul deputat choraklik, yarim yillik va to'qqiz oylik hisobotlarini o'rganib boradi. Yillik hisobotni doimiy komissiya majlisida ko'rib chiqish uchun tayyorlaydi. Doimiy komissiya faoliyatida muayyan ijobiy tajriba yoki kamchiliklar aniqlanganda choraklik va boshqa davrdagi hisobotlar yuzasidan tayyorlangan

Kengash qarori (ilovalar bilan) mahalliy Kengash sessiyasida ko‘rib chiqish taklifi bilan Kengash rahbariga beriladi.

**Doimiy komissiya hisobotini ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish.**

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasida davlat organlari rasmiy saytlariga joylashtirilishi mumkin bo‘lgan axborot belgilangan<sup>30</sup>. Mazkur moddaga ko‘ra davlat hokimiyati organi faoliyati to‘g‘risidagi tahliliy ma‘ruzalar va axborot tusidagi sharxlar uning rasmiy saytiga qo‘yiladi. Doimiy komissiyalarning hisobotlari bunday hujjatlardan bo‘lib, ularning e‘lon qilinishi fuqarolarga o‘z vakillari faoliyati to‘g‘risida axborot olish, ularga takliflarini berishga sharoit yaratadi. Masalan, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2010-2011 yillardagi faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotini hokimlik saytida e‘lon qilinishi ijobiy tajribadir. Ushbu tajribani qo‘llab, doimiy komissiyalar hisobotlarini mahalliy Kengashlarning rasmiy saytlariga qo‘yish, ularni yangilab borish qonun hujjatlariga muvofiq bo‘ladi.

**Doimiy komissiyalar ma‘suliyatini kuchaytirishda deputatning o‘rni.**

Deputat mahalliy Kengashda, jumladan uning doimiy komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqilayotgan masalalarda o‘z okrugi saylovchilari, uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi manfaatlarini ifoda etadi. Ushbu maqsadda deputat har bir doimiy komissiyaga uning faoliyati sohasidaga masalalar yuzasidan murojaat qilishi mumkin. Deputat o‘z vazifalarini samarali bajarmayotgan, faoliyati sohasidagi masalalarni o‘z vaqtida hal qilmayotgan doimiy komissiya hisobotini sessiyada ko‘rib chiqish taklifini kiritish huquqiga ega. SHuningdek, deputat tarkibiga o‘zi kirgan doimiy komissiya qaroriga qo‘shilmagan taqdirda o‘z nuqtai nazarini sessiyada bayon qilishga yoki bu haqda Kengash rahbariga yozma shaklda ma‘lum qilishga haqli.

---

<sup>39</sup> Xalq so'zi» gazetasining 2014 yil 6 maydagi 87 (6017)-soni.

Deputat tomonidan ushbu huquqlardan to'laqonli foydalanish doimiy komissiyalar faolligini oshirish, ularning mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalq farovonligini oshirish, tinchlik va xotirjamlikni asrash yoʻlida davlat va jamiyat qurilishini isloh qilishga qaratilgan bunyodkor ishlar ertangi kunga umid va ishonch tuygʻularini mustahkamlamoqda. Mahalliy hokimiyat organlari, xususan, xalq deputatlari Kengashlari ushbu ezgu maqsadlarga erishishda muhim oʻrin tutadilar. Hududlarda mavjud muammolarning tahlili xalq deputatlari Kengashlari, ularning doimiy ishchi organlari faoliyatining samarasini oshirishni taqozo etib, bu ishni davlat va jamiyat qurilishining muhim vazifalaridan biriga aylantirmoqda.

Respublikada xalq deputatlari Kengashlarining keng qamrovli vakolatlarini ixtisoslashgan va muntazam amalga oshiruvchi ishchi organlari tuzilgan. Lekin joylardagi vaziyat va doimiy komissiyalar faoliyatining tahlili hamda rivojlangan davlatlarning mazkur sohadagi tajribasi Oʻzbekistonda xalq deputatlari kengashlari doimiy komissiyalarining faoliyatini yanada takomillashtirish zarurati borligini koʻrsatmoqda.

Mahalliy Kengashlarni qonunchilikda mustahkamlab qoʻyilgan funksiyalari, vazifalari, vakolatlari, huquqlarini amalga oshirishning shakl va uslublarini ilmiy oʻrganish natijasida quyidagi qator umumlashtiruvchi xulosalar shakllandi:

**Birinchi.** Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi Qonunida qonunning maqsadi, mahalliy davlat hokimiyati tushunchasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy prinsiplari huquqiy jihatdan tartibga solinmagan. SHu jihatdan mazkur qonunni uning maqsadlari bilan bogʻliq quyidagi yangi modda bilan toʻldirish lozim: "*Ushbu Qonun Oʻzbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi*". Bunday normalar MDHga aʼzo ayrim davlatlar qonunchiligida mavjud (masalan, Qozogʻiston, Belarus), SHuningdek, ushbu qonunda Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashi faoliyatining tashkiliy shaklini belgilovchi norma oʻz ifodasini topmogʻi lozim. SHu sababli, qonunning IV bobini "Xalq deputatlari

viloyat, tuman, shahar kengashi faoliyatining tashkiliy shakllari" nomli yangi modda bilan to'ldirish zarur: "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashi o'z faoliyatini sessiyalarda, doimiy va boshqa komissiyalar, shuningdek deputatlar vakolatlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirishlari orqali olib boradi".

**Ikkinchi.** Har bir konstitutsiyaviy-huquqiy institut faoliyati uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi, o'ziga xos omil bo'lib xizmat qiluvchi xususiyatlar qatorida ushbu institutni qamrab oluvchi asosiy prinsiplar ham e'tirof etiladiki, ular orqali tegishli institutning mazmun va mohiyati hamda ahamiyati ochib beriladi. Mahalliy davlat hokimiyati ham konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida ma'lum bir jamiyat qonuniyatlariga bo'ysunadi hamda o'z faoliyati yo'nalishida muayyan prinsiplarga amal qilishi lozim. SHu bois, qonunni alohida modda sifatida mahalliy vakillik va ijroiya organlari faoliyatining fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonuniylik, jamoatchilik fikrini hisobga olish, oshkoralik, o'z vakolati doirasida mustaqillik, masalalarni birgalikda va erkin muhokama qilish, umumdavlat va hududiy manfaatlarni ifoda etish kabi asosiy prinsiplarni nazarda tutuvchi norma bilan mustahkamlash talab etiladi.

**Uchinchi.** Hokimlar lavozimga tayinlanayotganda ma'lum muddatga ega o'zining tegishli dasturini taqdim etishi lozim. SHuningdek, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuning 25 moddasiga xokim hisobotlarni qancha muddatda taqdim etish nazarda tutib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**To'rtinchi.** Kengash sessiyasiga qo'yilayotgan masalalarning tegishli doimiy komissiyalar ekspertizasi va xulosasi asosida muhokama qilinishi Kengash vakolatlarining samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda sessiyalar muhokamasiga kiritilayotgan masalalarning doimiy komissiyalar tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash bilan bog'liq «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasida mustahkamlangan funksiyalarning etarli darajada bajarilmayotgani, ayrim dolzarb muammolarning operativ hal qilinmayotgani natijasida fuqarolar manfaatlarining ro'yobga chiqmay qolishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan

davlatlarda doimiy komissiyalarga tegishli vazifalarning normativ hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgani mahalliy Kengashlarning vakolatlarini operativ amalga oshirilishini ta'minlamoqda. O'zbekistonda ham har bir doimiy komissiyaning qonunda qayd etilgan funksiyalarini Kengashlarning doimiy komissiyalari to'g'risidagi nizomlarda mustahkamlashning maqsadga muvofiqligi namoyon bo'lmoqda.

**Beshinchi.** Doimiy komissiyalar faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish va ularga amaliy yordam ko'rsatish, ish natijalarini umumlashtirish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish zarurati ularga doimiy rahbarlikni ta'minlashni taqozo etmoqda. Doimiy komissiyalar faoliyatiga rahbarlikning deputatlar ichidan saylanadigan va professional asosda doimiy ishlaydigan Kengash kotibi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

**Oltinchi.** Hokimning xalq deputatlari Kengashining raisi sifatida doimiy komissiyalarni shakllantirishdagi rolini komissiyalarning ro'yxati va ular oldida turgan vazifalarni deputatlarga ma'lum qilish bilan cheklash qoidasini «Doimiy komissiyalar to'g'risida»gi nizomlarda mustahkamlash zarurligi tobora yaqqolroq namoyon bo'lib bormoqda. Doimiy komissiyalarni shakllantirish jarayonidagi hokim va uning ijro mahkamasi ishtirokining huquqiy tartibga solinmaganligi Kengashlarning mutlaq vakolatini amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

**Yettinchi.** Tegishli davlat tashkilotlarining doimiy komissiyalarga muntazam hisobot berishini doimiy komissiyalar to'g'risidagi nizomlarda mustahkamlash ularning nazorat faoliyatini kuchaytirishning amaliy yo'llaridan biridir. Bunday hisobotlar Kengash, hokim va yuqori turuvchi tashkilotlar normativ hujjatlarini amalga oshirish yuzasidan berilishi maqsadga muvofiqdir.

**Sakkizinchi.** Doimiy komissiyalarga qonun hujjatlari ijrosini tashkil qilish hamda davlat va nodavlat tashkilotlarining qonunga zid hujjatlarini bekor qilish bo'yicha majburiy kuchga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish huquqining berilishi ularning faoliyati samarasini oshiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi doimiy komissiyalar qarorlarini ijro qilish muddatini belgilash va ularni bajarmagan tashkilotlarga

nisbatan choralar ko'rish komissiyalarga yuklangan funksiyalarning ta'sirchanligini oshirishini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi** taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Dastlabki ustuvor yo'nalish **Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari** bo'lib, unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda Oliy Majlis va siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, xalq bilan davlat o'rtasida muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi bir qator masalalar tushuntirib o'tilgan.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

### **1. Rahbariy adabiyotlar:**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi. T. 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.- O'zbekiston, 2018.- 80 b
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: —O'zbekiston, 2001. – 432 b.
4. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: —O'zbekiston, 2002. – 432 b.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. - T.: —O'zbekiston, 2003. – 320 b.
6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. -T.: —O'zbekiston, 2004. – 400 b.
7. Karimov I.A. O'zbek halqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13.-T.: —O'zbekiston, 2005. – 448 b.
8. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T.14.-T.: —O'zbekiston, 2006. – 280 b.
9. Karimov. I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –Toshkent.: —O'zbekiston, 2007. - 318 b.
10. Karimov. I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16.-Toshkent.: —O'zbekiston, 2007. -366 b.
11. Karimov. I.A. Vatanimizning bosqichma - bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. -T.17.-T.: —O'zbekiston, 2009. -280 b.
12. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. – T.: —O'zbekiston, 2010. – T.18. -264 b.
13. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T. 19. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. -348 b.
14. Karimov I.A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T. 20. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. -320 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza / 2009 yil 5 dek./ – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 32 b.
16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: —O'zbekiston, 2010. – 80 b.



17. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi — Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir mavzusidagi ma’ruzasi // —Xalq so‘zill gazetasi. 2010 yil 28 yanvar, №19 (4934).

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi —Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasill to‘g‘risidagi ma’ruzasi // —Xalq so‘zill gazetasi, 2010 yil 13 noyabr soni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 7 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi —Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidirll deb nomlangan ma’ruzasi // —Xalq so‘zill gazetasi. 2010 yil 8 dekabr, №236 (5151).

20. Karimov I.A. 2010 yilda Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan 2011 yil 21 yanvarda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi —Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladil deya nomlangan ma’ruzasi // O‘zbekiston Ovozi gazetasi. 2011 yil 22 yanvar, №10 (31.286)

21. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent.: —O‘zbekistonll, 2011y. – 440 b.

22. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. -48 b.

23. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta‘minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir / O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2012 yil 8 dekabr, №239 (5659).

24. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2014 yil 18 yanvar’.

## **2. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, —O‘zbekistonll 2012 y. 40b

2. O‘zbekiston Respublikasining —Maxalliy davlat xokimiyati to‘g‘risidalgll konuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi. 1993 y., 9-son, 320-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining maxalliy xokimiyati idoralarini kayta tashkil etish to'g'risidagi konstitutsiyaviy konun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1992 yil. 3-son. 146-modda.
4. —Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 520-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 134-modda
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 523-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 137-modda
6. —O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi (YAngi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 518-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 132-modda
7. —Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 04.04.2002 y. 350-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 4-5-son, 60-modda
8. —Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi (YAngi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 13.12.2002 y. 446-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 1-son, 7-modda
9. O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risidagi (YAngi tahriri)
10. O'zbekiston Respublikasi 30.08.2001 y. 265-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 9-10-son, 176-modda // O'zbekiston Respublikasi 03.12.2004 y. 714-II-son Qonun bilan o'zgartirishlar kiritilgan
11. 9.
12. —Xalq deputatlari mahalliy kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati azosini chaqirib olish to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. —2005. — №1. — 12- modda.
13. 10.
14. —O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi (YAngi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 27.08.2004 y. 669-II Qonuni bilan tasdiqlangan
15. 11.
16. O'zbekiston Respublikasi —Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007.- №15.- 151-modda.

17. Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Xalq so'zi. 2008 yil 27 dekabr

18. 13. O'zbekiston Respublikasi —O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) gi qonuni. Xalq so'zi, 2011yil, 18 aprel.

19. Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi hamda «xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 51-son, 574-modda

20. “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida (23, 78, 93, 98, 103, va 117moddalariga)”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Xalq so'zi, 2014yil, 26 aprel.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1.Xusanov O.T. Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan i osnovy gosudarstvennoy vlasti na mestax: pravovye, organizatsionnye voprosy i problemy.—T.,1995. -78 s.

2. Xusanov O.T. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat, - T., SHarq, 1996.-89 b.

3.Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining —Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida va —Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risidagi qonunlariga sharhlar.-T.:Adolat, 1997.- 80 b.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007.- №15.- 151-modda.

17. Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Xalq so‘zi. 2008 yil 27 dekabr

18. 13. O‘zbekiston Respublikasi —O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) gi qonuni. Xalq so‘zi, 2011yil, 18 aprel.

19. Saylov erkinligi yanada ta‘minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi hamda «xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 51-son, 574-modda

20. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida (23, 78, 93, 98, 103, va 117moddalariga)”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Xalq so‘zi, 2014yil, 26 aprel.

### **Internet saytlari:**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)